



# VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqqa boshlagan ● 2024-yil 26-iyul, №30 (3092)

## BIZ BIR BO'LSAK — YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!

4-5 BITTA SNARYAD —  
BITTA NISHON!

10 KREATIV FIKRLASHNING  
MOHIYATI

15 KO'NGILLARNI XUSHNOD  
ETGAN KARVON

16 MA'RIFATLI SHAXS  
TARBIYASI



IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

**BIZ**  
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz

t.me/mv\_vatanparvar\_uz

t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya



# MA'RIFAT — ASRIMIZ XALOSKORI

Insoniyat rivojlanish va taraqqiyot sivilizatsiyasining yangi davri – XXI asr axborotlashgan, global va informatsion bosqichga qadam qo'yar ekan, yangi davrning tahdid va xavf-xatarlar bilan limmo-limligini ko'rib, dunyo hali ham har jihatdan o'ta mo'rt ekaniga iqror bo'lamiz.



Darhaqiqat, XXI asrda dunyo xavfsizroq bo'lib qolmadi. Qashshoqlik, ekologik muammolar, resurslar taqchilligi, ommaviy kasalliklar, diniy aqidaparastlik va terrorizm XX asrdan XXI asrga meros bo'lib o'tdi. Ayrim kuchlarning urinishlari natijasida xavf-xatarlar ro'yxati yangilari hisobiga yanada kengaydi. Demografik inqiroz, ommaviy epidemiyalar, demokratiya eksporti, ma'naviy qashshoqlashuv, axborot urushlari, g'aribona turmush tarzini tiqishtirish, mafkuraviy-informatsion tahdidlarning yangi turlari shundoq ham bezovta dunyoning tashvishlarini ko'paytirdi. Bu esa, o'z navbatida, inson va insoniyatning ma'naviy qiyofasiga ta'sir etmasdan qolmaydi.

Insonning ma'naviy qiyofasi va ma'naviy muhitini o'zgartirishga qaratilgan informatsiyalar, jahon axborot makonida shakllantirilayotgan g'oyaviy ta'sir, oshkora mafkuraviy tazyiq oldida, hattoki tajribali mamlakatlar ham qiyin ahvolga tushib qolmoqda. Buning sababi informatsion va mafkuraviy tahdidlar ta'sirining an'anaviy xavf-xatarlar – terrorchilik, yadroviy qurollarning ishlatilishi, ekologik muammolar va boshqalardan farq qilib, ko'zga ko'rinmasligi, tezkorligi, chegara bilmasligi, uzoq vaqt mobaynida noaniqlik kasb qila olish qobiliyati va boshqalardir.

Hech narsadan tap tortmaydigan informatsion va mafkuraviy ta'sir tufayli turli davlatlar aholisi kayfiyati, ruhiyati, dunyoqarashi va xatti-harakatlarida salbiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. O'zbekiston ham ana shunday murakkab global xalqaro munosabatlar sharoitida o'zining ertangi kunini barpo qilib kelmoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning zamirida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishni o'zida mujassam etgan Yangi O'zbekiston konsepsiyasi tub maqsadlarini ifoda etadi.

Bugun biz mamlakatimizda demokratik jarayonlarni rivojlantirish va chuqurlashtirish, fuqarolarning siyosiy-madaniy faolligini oshirish, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish, ularning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotidagi

amaliy ishtiroki, sodir bo'layotgan voqealarga o'z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmas ekanimiz, maqsadimizga erishishimiz yanada murakkablashib boraveradi. Mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etish muhim ustuvor vazifa sifatida belgilab olindi.

Bu yo'lda amalga oshiriladigan islohotlarning tub negizida ma'naviy rivojlanish masalasi turadi. Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Muayyan xalq yoki davlat hayoti uchun g'oyat muhim ahamiyat kasb etadigan biror bir fenomen yoki u haqdagi tushuncha va tamoyillar o'z-o'zidan osongina paydo bo'lmaydi va tasodifan dunyoga kelib qolmaydi. Shu ma'noda, har qanday hodisa, tushuncha yoki atamaning o'ziga xos shakllanish jarayoni bor. Yangi O'zbekiston fenomeni ham bundan mutasno emas.

...Biz orzu qilgan va qat'iy intilayotgan Yangi O'zbekiston, avvalo, xalqimiz o'z milliy taraqqiyotining yangi davriga qadam qo'rganini, jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallayotgani, bu borada oldimizda ko'plab yangi imkoniyatlar paydo bo'layotganini anglatadigan tushunchadir". Demak, millatning qalb amri bo'lgan bu istakni amalga oshirish fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokiga bog'liq ekanini anglamog'imiz lozim bo'ladi. Inchinun, Yangi O'zbekiston g'oyasi ma'naviy jarayonlarning rivojini ta'minlab beruvchi asos bo'lib xizmat qiladi.

Ana shunday olamshumul g'oyalar asosida jamiyat taraqqiyoti yo'lida amalga oshirilgan sa'y-harakatlar o'z natijasini ko'rsatdi va ijtimoiy-ma'naviy hayotda keskin o'zgarishlarning vujudga kelishiga xizmat qildi. Binobarin, ma'naviy-ma'rifiy sohada ishlar sezilarli darajada jonlandi.

Aynan ma'naviy jarayonlarning ijtimoiy hayotdagi o'rnining salmog'i kundan kun ortib borishi natijasida bu yo'nalishdagi islohotlar jadal tus ola boshladi. Ushbu masala davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Respublika hukumati tizimli va tadrijiy ravishda ma'naviy-ma'rifiy masalalarni jiddiy nazoratga olib, muntazam rivojlantirish ishlarini yanada kuchaytirdi.

Mamlakatimizda vatanparvar, fidoyi, mustaqil fikriga ega, yurtimiz kelajagiga xavf soladigan har qanday tahdidlarga qarshi tura oladigan, istiqloq g'oyalarga sadoqatli, o'zining intellektual salohiyati bilan dunyo arenalarida Vatanimiz bayrog'ini baland ko'tara oladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishni nazarda tutgan qator tadbirlar tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi.

Barkamol avlodni tarbiyalashda birgina ilmiy-intellektual salohiyatni oshirish yo'lidan emas, balki jismonan yetuk avlodni tarbiyalash ishiga ham jiddiy e'tibor qaratildi. Islohotlarni amalga oshirishga qodir, fidoyi shaxslarni tayyorlash borasida ustuvor davlat siyosati yuritildi. Milliy g'oya, milliy istiqloq mafkurasi doirasida mavjud intellektual imkoniyatlarni ishga solish, barkamol avlodni tarbiyalash, insonparvarlik va oliyanoblik tuyg'ularini chuqurlashtirish, buyuk o'tmishga ega xalqimizning boy merosiga hurmat va baxtli kelajakka ishonch hislarini mustahkamlash yo'lida ulkan ishlar amalga oshirildi.

Albatta, har qanday jamiyatda islohotlarni hamma qabul qilishi yoki birdaniga uni amalga oshirishga kirib ketishi murakkab jarayon. Ayniqsa, asrlar davomida biror g'oya bilan yashab, birdaniga boshqa g'oyalarga o'zgartirishning o'zi bo'lmaydi. Ana shunday murakkab jarayonlar davrida ulkan islohotlar amalga oshirilsa-da, ko'pgina kamchiliklarga yo'l qo'yilgani hech kimga sir emas. Xususan, oila, mahalla va ta'lim muassasalarida yoshlar tarbiyasida kamchiliklar mavjudligi, mahallalarda yoshlar bilan g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarning yuzaki tarzda olib borilayotgani, adashib har xil harakatlarga qo'shilib qolish, milliy qadriyatlarimizga nisbatan e'tiborsizlik kabi salbiy holatlarning oldini olish, ularni bartaraf etishga qaratilgan targ'ibot ishlarini tizimli yo'lga qo'yishda sustkashlikka yo'l qo'yilayotgani yoki aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotgani bilan bog'liq masalalarga jiddiy e'tibor qaratish lozimligi ko'zga tashlandi.

Ma'naviy jarayonlarning uzluksizligini ta'minlash bilan bog'liq vazifalarning yuklatilishi masalaning bir tomoni, ammo uni bajarish uchun mustahkam mexanizm zarur bo'ladi. Endigi vazifa ana

shu mexanizmni shakllantirish edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori "ma'naviy jarayonlar" mexanizmini konseptual asosda ko'rsatib berdi. Unda ta'lim tizimi ma'naviy jarayonlarning asosiy richagi sifatida belgilandi.

Jumladan, davlat oliy ta'lim muassasalarida yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor lavozimi joriy etildi;

– barcha umumta'lim maktablarida 2021-yilning 1-yanvaridan boshlab faoliyat yuritayotgan yoshlarning yaqin maslahatchisi bo'lgan yoshlar yetakchisi lavozimi saqlab qolindi;

– har bir tuman, shahar va viloyat markazlari hududlarida ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlash, oila va mahallalarda hamjihatlikni ta'minlash, yoshlar ongi va qalbida ma'naviy fazilatlarini yuksaltirish maqsadida "Ma'naviyat va ma'rifat maskani"ni tashkil etish manzilli ro'yxati tasdiqlandi;

– targ'ibot-tashviqot ishlarini ilmiy asosda tashkil etish, ma'naviy-ma'rifiy sohada ilmiy-uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlash bilan bog'liq doimiy monitoring tizimini joriy qilish qayd etildi;

– sohada ilmiy faoliyatni yo'lga qo'yish maqsadida "Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti" tashkil qilish vazifasining yuklatilishi ma'naviy jarayonlarning jadal sur'atlar bilan rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Ma'naviy jarayonlar bilan bog'liq islohotlarni izchillik bilan olib borilishining asosiy sababi fuqarolarimiz, ayniqsa yoshlarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, ularni o'z fikriga ega, turli ma'naviy tajovuzlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan amaliy ishlardir.

**Shavkat TO'RAYEV,**  
Ijtimoiy-ma'naviy  
tadqiqotlar instituti  
bo'lim boshlig'i, falsafa fanlari  
doktori, dotsent





# MILLIY TARBIYA — YUKSALISH DRAYVERI

Yoshlar tarbiyasi milliy yuksalishimizning kuch-qudratiga, drayveriga aylanishi uchun, avvalo, Uchinchi Renessansning beshinchi ustuni – oila tarbiyasi birinchi va eng muhim vazifani bajarishi kerak. Bu esa ota-onalarning ijtimoiy-pedagogik bilimlarini oshirish, ularga farzandlarni Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi asosida tarbiyalashga o'rgatishni shart qilib qo'yadi.

O'z tarixida ikki Renessans qurgan mamlakatimizning gerbida Humo qushi qanot kerib turibdi. Bu tasodif emas. Humo – qadimiy va navqiron O'zbekiston ramzi – Renessans ramzi. Xalqimiz, ayniqsa yoshlar shod. Chunki yangilanish, uyg'onish, jo'shqinlik Renessanslarning harakatlantiruvchi kuchi – yoshlarga xos olovli tuyg'ulardir.

So'nggi yillarda dunyo ijtimoiy fanlarida madaniy kod, milliy kod tushunchalari keng qo'llanilmoqda. **Madaniy kod – bu ajdodlardan meros qolgan noyob madaniy xususiyatlar.** Ular xalqning ramzlarida, goh anglangan, goh anglanmagan holda xulq-atvor odatlarida namoyon bo'ladi. Madaniy kod o'zbekcha aytganda, "asli qonida bor narsa"ga to'g'ri keladi. **Imom Buxoriy, Termiziy, Ibn Sino, Marg'inoniy, Beruniy, Nasafiy, Farg'oniy, Zamaxshariy, Moturidiylarning merosxo'rlarimiz.** Ular o'zlaridan 1000 yil keyin O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Islom sivilizatsiyasi markazini qurish huquqini olib, bizga berib ketdilar. Ikki Renessansni yaratgan bobolar qoni bugun bizning tomirlarimizda oqayotir. Shunday ekan, Yangi O'zbekistonda qayta tiklanish tajribasini qayerdan izlashimiz kerak? Bu savolga javobni hazrat Alisher Navoiy aytib, tayinlab ketganlar: "Har ne istarsen, o'zingdin istagil". Darhaqiqat, ajdodlarimiz jahon ahliga diniy va dunyoviy ilmlarning aslini o'rgatgan. Dunyoning yetuk olimlari bizning bobolarimiz bilan tanishi, ularga shogird ekani, ularning asarlarini o'qigani bilan faxrlangan. Bizga bugun mana shu shon, mana shu sharaf darvozasi qayta ochilmoqda.

2019-yilning 31-dekabr kuni "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" tasdiqlandi. Unga ko'ra, 30 yoshgacha bo'lgan **o'quvchi-yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch fazilat, ijtimoiy kompetensiyalar rivojlantiriladi.** Bu

fazilatlar oilaviy tarbiya uchun ijtimoiy buyurtmaga aylanadi. Shu vaqtgacha natijasi mavhum bo'lib kelgan tarbiya mana shu tayanch fazilatlarida natija topadi. Mukammal kompetensiya-fazilatlar bilan mustaqil hayotga kirib borgan o'g'il-qizlarimiz o'zini ham, Vatani ham baxtli qiladilar.

Maktab, oilalar uchun "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning innovatsion ruhi nimada ko'rinadi? Ilgari O'zbekistonning 1-18 yoshgacha bo'lgan bolalar, o'smirlar yoshiga mos qanday ma'naviy talablarga javob berishi kerak?, "Bir yillik tarbiyaning natijalari qanday bo'ldi?" degan aniq savol qo'yilmagan. Qo'yilsa ham "Hamkorlikda ko'p tadbirlar o'tkazdik. Endi bolalar katta bo'lsa, ma'lum bo'ladi-da tarbiyasi", degan fikrlar bilan "yopilgan". Yoki 5-6 nafar iqtidorli yoshni ko'rsatib, mana tarbiyaviy ishlar yutug'i, deyilgan edi. Bolalar g'ayratli raqsga tushishar, she'rni ko'zlari yonib, to'tidek o'qishar, biroq she'r, raqs tugagach, ko'zlari bo'm-bo'sh, hamma qatori bo'lib qolishar edi. Chunki tarbiya og'zaki edi. Amaliy emas edi. Tarbiyaviy bilimlar berilar, ammo ular xulqqa ko'chmas edi. Fazilatlar treninglarda o'rgatilmaligi sababli odatga aylanmasdan, bilim darajasida qolib ketar edi. Shuning uchun bugun ayrim 15-20 yoshli bolalarimizning xulqi bizni ranjitayotgan bo'lsa, bunga ular aybdor emas. **Ularning bilmasligi – tushuntirilmaganidan, qilmasligi – xulq o'rgatilmaganidan. Vatandarlikni ham, choy suzishni ham, uyalishni, mas'uliyatni, salom berishni ham.**

Xulq nima? Xulq tirik mavjudotlarning atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirlanish jarayoni. Xulq – tirik mavjudotlarning tashqaridan ko'zga ko'rinadigan, individ bilan muhit orasida hayotiy muhim aloqalar o'rnatish va uni ushlab turishga qaratilgan faol harakatlari yig'indisi. Xulq manbasi odamning ehtiyojlari hisoblanadi. Xulq odam psixikasining qo'zg'atuvchi, boshqaruvchi, aks ettiruvchi va ijroga qaratilgan tashqi harakatlari majmuasidir. Xulq natijasi odamning o'z ehtiyojini qondirishi,

qisman qondirishi yoki qondirmasligi bilan tugaydi. Xulq qiliqlar zanjiridan iborat bo'lib, odamning qiliqlarida uning pozitsiyasi, ma'naviyati, e'tiqodi namoyon bo'ladi. Xulq individning manfaatlaridan kelib boshqariladigan, tashqaridan kuzatiladigan, qayd qilish mumkin bo'lgan harakatlari yig'indisidir.

Yangi O'zbekiston tarbiya masalasini ham yangicha, texnologik tushunishni talab qilmoqda. Endi "Bugun maktablarni bitirayotgan yoshlarimiz Uchinchi Renessansga xizmat qilishga tayyormi?" degan savolga "Hamkorlikda ko'p tadbir o'tkazganmiz. Endi tarbiyasi katta bo'lsa bilinadi-da", degan gaplarga chek qo'yilmoqda. Endi "Ha, endi tarbiya, ma'naviyatni o'lchab bo'lmaydi-da. Boshiyam, oxiriyam yo'q-ku", degan eski pedagogik tafakkur chekinmoqda.

**Yangi tarbiya Vatanning o'g'il-qizlariga Uchinchi Renessans nima uchun, kim uchun kerakligini xalqqa uning orzulari bilan bog'lab uqtiradi, ko'rsatadi.** Tushungan xalq g'oya bilan qurollangan xalqqa aylanadi. O'z milliy g'oyasini anglagan xalqni esa to'xtatib bo'lmaydi.

"Uchinchi Renessans" natijalarining qachon, qanday bo'lishi har bir oilaning innovatsion fikrlashiga bog'liq. Buning uchun innovatsion yashash – har birimizning hayot tarzimizga aylanib, har bir kishi o'z sohasining innovatori bo'lishi kerak. Ya'ni har bir ota-ona, tadbirkor, fermer, o'qituvchi, san'atkor, jurnalist, bog'cha tarbiyachisi, imom, talaba, quruvchi, olim, provayder, tikuvchi, tyutor, mahalla raisi "Nima qilsam, ishimning samarasi oshadi?" deb o'ylansin. Ijod qilsin, bosh qotirsin. O'z ishiga, hayotiga yangiliklar kiritib yashasin. Ana shunda baxtning o'zi bizga qarab kelaveradi. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da o'n tayanch fazilatning biri innovatsion fikrlash etib belgilanganining hikmati shunda. Harakatdan barakat.

Tarixda bir ziyolining innovatsion fikrlashi butun boshli xalqni halokatlardan saqlab qolganiga misollar bor. Bir tarixiy misol esga tushadi. Dunyodagi eng katta gonorar II asrda Rim imperatori Mark Avreliy tomonidan shoir-metodist Oppianga berilgan. Oppian sevgi, ishqiy o'rtanishlar haqida emas, baliqchilik va ov qilish qoidalarini haqida yigirma ming baytli ikki doston yozgan edi. Imperator dostonlarning har bir satri uchun bir oltin tangadan qalam haqi beradi. Nega? Chunki odamlar bu dostonlarni o'qib, ko'p kuylab, ko'p eshitib, baliq tutish, ov qilish qoidalarini o'rganib olishdi. Mana shu bitta art-pedagogik innovatsiya xalqqa baliq tutish mahoratini o'rgatib, uni ochlikdan saqlab qolgan.

Uchinchi Renessans ma'naviyati zamonaviy avlodga mansub yoshlarimizni, xalqimizni innovatsion fikrlashga, o'ylashga, yashashga o'rgatishni talab qiladi. Buning uchun nafaqat bog'cha, maktab, litsey, institutlar, balki oilalarda ham bolalarimizni innovatsion fikrlashga o'rgatish ham farz, ham qarzga aylanmog'i maqsadga muvofiqdir.

Milliy tarbiyaning mazmuni milliy rivojlanishning yangi talablaridan kelib chiqib, yangilanib turadi. O'z chiqishlaridan birida hurmatli Prezidentimiz "Milliy g'oya nima uchun kerak?" degan savolni o'rtaga tashladi. Javobini ham bir jumlagi jo qilib, "Vatanni sevish uchun", dedi. Uchinchi Renessans

bizdan ana shu sevgini, **Vatanni – o'z uyimizdek, xalqimizni o'z oilamizdek sevishni so'rayapti.** Chunki faqat muhabbat, Vatan sevgisi insonni yangi, yaxshi kelajak yaratishga safarbar qiladi, madadkor bo'ladi. Ana shunda o'zida Vatanga sodiqlik, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibat, mas'uliyat, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlikni mujassam qilgan o'zbekistonliklar Uchinchi Renessansni, albatta barpo qiladilar. Uchinchi Renessans bizdan jon, sog'liq, mablag' emas, yuqoridagi fazilatlarini har kuni o'zimiz uchun, amalda ko'rsatishni so'raydi. O'z ishimizni halol-pok, sifatli, vijdonimiz nazoratida bajarishni so'raydi.

Uchinchi Renessans inson ma'naviyatidagi renessansdan kuch oladi. Bu esa hamma narsaga, jumladan milliy xarakterimizga, fe'l-atvorimizga ham ma'naviy innovatsiyalar kiritishimizni, isloh qilishimizni talab qilmoqda. Aslida eng qiyin, ammo eng to'g'ri yo'l va resurs shu. Bu xalqimiz xarakterini kuchli fazilatlar – iroda, tirishqoqlik, mehnatsevarlik, innovatsion fikrlash, tadbirkorlik bilan kuchaytiradi.

Buning uchun yangi, bunyodkor shaxslarga xos xulq modellarini ishlab chiqish va o'rgatish bo'yicha ilmiy pedagogik-psixologik tadqiqotlarni muntazam o'tkazib borishimiz zarur. Ularda "Uchinchi Renessans uchun xalqimiz xarakterida qaysi fazilat va xulqlarni kuchaytirish kerak?", "Qaysilari bor?", "Nimalar yetishmayapti?", "Qaysi illatlar Uchinchi Renessansni qurishimizga xalaqit beradi?" (*Masalan, hasad, ko'rolmaslik, isrofgarchilik, loqaydlik, yolg'on, mehrsizlik, g'iybat...*) qabilida. Bularni bir tizimga solish uchun "Jamiyatni Uchinchi Renessansga tayyorlashning ilmiy-amaliy dasturi"ni ishlab chiqib, dadil joriy qilish maqsadga muvofiq. Nega deganda, yuqorida aytganimizdek, **Uchinchi Renessans, avvalo, o'zbekistonliklarning ma'naviyatida, xulqida ro'y beradi. Milliy tarbiya o'rgatgan mana shu g'ayratli, vatanparvar xulqlar Uchinchi Renessansning drayveri bo'lib xizmat qiladi.**

Buning uchun tarbiyaviy ishlar texnologiyalarini, kouchingni, pedagogik eksteriorizatsiyani kuchaytirish, amaliy milliy tarbiya talab etiladi. Ya'ni har bir pedagog vatanparvarlik, fidokorlik, tashabbuskorlik-u tadbirkorlik haqida gapirishi va bu fazilatlarining xulq va operatsiyalarini, qiliqlarini o'zi qilib ko'rsatishi kerak. Masalan, vatanparvarlik haqida she'rlar o'qish, suhbatlar o'tkazish jarayonida ham pedagog vatanparvar xulq modelining namunasini ko'rsatishi kerak. Ana shunda xalqimizning "Ming eshitgandan bir ko'rgan afzal" hikmati bog'cha, maktab, institut, universitetlar ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoniga joriy bo'ladi. Ma'naviyatning xulqqa ko'chishi, konvertatsiyasi kafolatlanadi. Tarbiyadagi bo'shliq to'ldiriladi.

**Muhammadjon QURONOV,**  
RMMM huzuridagi  
Ijtimoiy-ma'naviy  
tadqiqotlar instituti  
direktorining o'rinbosari,  
pedagogika fanlari doktori,  
professor



Artilleriya davlatimiz xavfsizligining daxlsizligini ta'minlovchi, milliy armiyamizning salohiyatini oshiruvchi qo'shin turlaridan biri sanaladi. Doimiy o'tkazib kelinadigan o'quv mashg'ulotlari jangovar tayyorgarlikni yanada oshirish imkoniyatini beradi. Bu galgi "trevoga" ham Mudofaa vazirligi tizimida faoliyat yuritayotgan artilleriya qo'shinlarining hushyorligini yana bir bor sinovdan o'tkazdi.

Yig'in nuqtasi Markaziy harbiy okrugning "Kattaqo'rg'on" dala-o'quv maydoni etib belgilandi. "Trevoga" signalidan so'ng Toshkent, Markaziy hamda Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okruglardan yo'lga otlangan soha mutaxassislari dastavval harbiy texnikalarni temiryo'l platformasiga yuklashga kirishdi. Dastlab temiryo'l bekati, shoxobchasi va aeroporti harbiy harakatlar tarkibiy bo'limiga mutaxassislar tomonidan yo'riqnomaga o'tilib, harbiy texnika va harbiy yuklarni temiryo'l harakatchan tarkibi (*vagon*) ga yuklash bo'yicha ko'rgazmali mashg'ulotlar o'tkazildi. Texnikalar yuklangach, harakat temiryo'l orqali davom ettirildi. Qo'shinlar jangovar shayligini mustahkamlash hamda bo'linmalar va texnikalarni bir joydan ikkinchi joyga olib o'tishda uzilishlarning oldini olish maqsadida tashkil etilgan ushbu jarayonda asosiy e'tibor xavfsizlik talablariga rioya etish va texnikalarni vagonlarga yuklashda ehtiyot choralariga e'tibor qaratish lozimligi yana bir bor sinovdan o'tdi. Bu oraliqda Kattaqo'rg'on garnizonidagi harbiy qism shaxsiy tarkibi ham yuqori jangovar shay holatga keltirib, uzoq masofaga avtoyo'l orqali marsh amalga oshirildi. Kolonna birin-ketin harakatlanib, dala-o'quv maydoniga yetib keldi.

Oxiri ko'rinmaydigan, sarg'ayib qolgan giyohlardan boshqa biror daraxt yoki butalarga ko'z tushmaydigan, uzoq kengliklarga tutashib ketgan "Kattaqo'rg'on" dala-o'quv maydoni o'rtasida harbiylar artilleriya qurollarini joylashtirish bilan shug'ullanmoqda. Har zamonda esib turadigan issiq shamolni hisobga olmaganda, doimiy sokinlik hukm surardi. Vatan himoyachilari nafaqat shartli dushman bilan, balki tabiat injiqliklari bilan ham kurashishga majbur edi.

Navbat amaliy mashg'ulotlarga yetib kelgach, o't ochish pozitsiyalarini muhandislik jihozlash, muhitga mos niqoblanish, uchuvchisiz uchish apparatlari yordamida nishon koordinatlarini tez sur'atda aniqlash va uni yakson etish usullari bo'yicha ishlab chiqilgan yangi taktik qo'llanmalar asosida o'zaro tajriba almashildi. Uchuvchisiz uchish apparatlari yordamida nishonlarni 152 mm gaubitsali pushkalar orqali yakson etish dastlab batareya shaxsiy tarkibiga yuklatildi.

- O'ttiz ming metrgacha bo'lgan masofada "Bitta snaryad - bitta nishon" shiori ostida nishonlar yakson etildi,



- deydi kapitan Husniddin Bahromov. - Bunday amaliy mashg'ulotlar tajribamizni oshiradi. Vaziyat kezi kelganda, nafaqat jamoaviy, balki guruhimiz ham tezkor qarorlarni qabul qilishi kerakligiga o'rgatadi. Tezkor va aniq qabul qilingan qarorlar, murakkab vaziyatlarda nishonlarning yakson etilishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bugungi o'quv mashg'ulotida ham qo'mondonlik punkti orqali berilgan topshiriqlarni a'lo darajada bajarishga harakat qildik. Bizning vazifamiz nishonni aniq mo'ljalga olish edi va biz buni uddaladik.

Artilleriya stvolidan chiqayotgan snaryadlar o'zidan olov, chang va kuchli ovoz qoldirganicha belgilangan nishon tomon uchishni boshladi. Ketma-ketlikda davom etgan o't ochish jarayoni 5-6 daqiqa ichida to'xtatildi hamda uzoqni yaqin qiluvchi moslama yordamida nishonlar ko'zdan kechirildi. Shartli dushmaning



## BITTA SNARYAD —





# BITTA NISHON!



asosiy kuchlari yakson etilgani aniqlangach, artilleriya nishonlarining koordinatalari qochishga urinayotgan dushman texnikalariga qaratildi. Masofa ancha olis bo'lgani bois mutaxassislar koordinatalarni snaryad borib tushishi mumkin bo'lgan vaqtni hisobga olgan holda harakatli obyektga yo'naltirdi.

Bitta snaryad va bitta nishon! Harakatdagi obyekt yo'q qilindi. Uzoqni yaqinlashtiruvchi moslama yordamida biror holat aniqlanmagach, uchuvchisiz uchish apparatlari orqali shartli dushman joylashgan nuqta yana bir bor ko'zdan kechirildi. So'nggi xulosa aniq, nishon batamom yo'q qilingan.

Shundan so'ng artilleriya o't ochish to'xtatildi... Uzoq kengliklarga tutashib ketgan "Kattaqo'rg'on" dala-o'quv maydoniga yana sokinlik cho'kdi.

Shundan so'ng divizion va batareyalarning hamkorlikda amalga

oshirgan amaliy mashg'ulotlari tahlili muhokama qilinib, divizionlarning jangovar shayligini oshirish, qurulasla, reaktiv qurilma va o'ziyurar artilleriya texnikalarini samarali qo'llash bo'yicha yangi tajribalarni amaliyotga kiritish masalalari bo'yicha bilimlar mustahkamlandi.

Kolonna birin-ketin harakatlanib, dala-o'quv maydonini tark etarkan, quloqlarim ostida hali ham gumburlagan sadolar chalinib turardi. Salgina oldin besh yashar o'g'limning oyisi bilan bog'da sayr qilib yurgani, 4 ta attraksionga chiqarib, beshinchisiga yo'q degani uchun onasidan nolib, menga telefon qilgani esimga tushdi. Beixtiyor yuzimga kulgi yugurib, "Tinchligimizga ko'z tegmasin!" deganicha kolonna ortida bizni kutib turgan mashina tomon yura boshladim...

**Sherzod SHARIPOV,**  
"Vatanparvar"



# O'G'LONLARIMIZ ALP, OLOVYURAKDIR!

Bahorning ilk oyidan muddatli xizmat boshlagan oddiy askarlar bugun harbiy xizmat sinovlarida toblanmoqda. Ular bilan suhbatlashsangiz, ko'ksidagi faxr tuyg'usini his etasiz. Negaki bu o'g'lonlar dastlabki sinovlarni ortda qoldirib, Vatanga qasamyod sharafini ado etib, harbiy xizmat ko'nikmalarini o'zlashtirib borayotgan shaxti baland posbonlar. Ular yurtimizning turli viloyatlarida voyaga yetgan, orzu-niyatlari, qiziqishlari turlicha, ammo maqsadlari bir – Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish.



**Anvar TO'RAYEV**

## “DO'STLARIM MENGA HAVAS QILDI”

– Do'stlar, – atrofiga uch-to'rt chog'li safdoshlarini yig'ib, fikrini yetkazishga shoshildi oddiy askar Anvar To'rayev, – xizmatdan bo'sh payti komandirlarimiz tomonidan o'tkazilgan jangovar tayyorgarlik va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlaridagi bilimlarimizni mustahkamlaymiz. Nima deysizlar?

– To'g'ri aytding, – uning maslahatini ma'qulladi oddiy askar Fariz Sodiqov, – bilimni takrorlash yaxshi natija beradi. Keyingi mashg'ulotda qiynalmay javob beramiz, yetakchi bo'lamiz. Bundan guruh komandirimiz xursand bo'ladi...

Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Anvar To'rayev safdoshlari orasida yetakchilik bilan ajralib turadi. Bu uning o'quvchilik davridagi

faolligi bilan uzviy bog'liq bo'lsa, ajabmas. Buxoro viloyatining Peshku tumanidagi 38-umumta'lim maktabida oltinchi sinfdan boshlab sportning voleybol, gandbol va basketbol turlari bilan shug'ullangan yigitcha viloyat miqyosidagi sport musobaqalarida guruhdagi yetakchi o'yinchilar qatorida ishtirok etgan. O'ndan ziyod diplom va faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan.

– Sportda erishgan yutuqlarimda maktabdagi jismoniy tarbiya fanidan saboq bergan o'qituvchim Firdavs Bozorovning katta o'rni bor, – deydi Anvar. – Albatta, sport doimiy shug'ullanish va harakatni talab etadi. Bu harbiy xizmat sinovlarini yengib o'tishda, xizmat ko'nikmalarini o'zlashtirishda menga yordam berdi. Harbiy xizmatda chiniqdim va ulg'aydim, desam bo'ladi. Vatanga qasamyod tadbiriga kelgan do'stlarim menga havas qildi. Bu bejiz emas, armiya maktabiga munosib bo'lish, yetuk komandirlar qo'lida tarbiyalanish har bir yigitga ham nasib etavermaydi. Oldimizda hali zalvarli sinovlar bor. Vzvod komandirimiz mayor Muzaffar Karimov boshchiligida bu sinovlarni yengib o'tib, harbiy bilimlarni o'zlashtirishimizga ishonaman. Men oilada katta farzandman. Ukalarim Hojiakbar va Og'abekning armiya maktabida toblanishini istayman, ularni muddatli harbiy xizmatga munosib bo'lishi uchun o'zim tayyorlayman.



**Adhamjon JUMANOV**

## “ASKARLIK LIBOSI ORTIDA KATTA MAS'ULIYAT BOR”

Gulmira opa o'g'li Adhamjonni armiya xizmatiga kuzatdi. Dilida shukrona bo'lsa-da, ko'z yoshlarini tiya olmasdi u.

– Tinchlikmi, onasi? – ayoliga sinchkov nazar tashladi Azamat aka. – O'g'ling saralash sinovlaridan o'tib, askarlikka munosib topildim, deganida rosa quvonganding. Bu nimasi endi?

– Hammasi xursandchilikdan, dadasi, – jilmaygan ko'yi ko'z yoshini artdi Gulmira opa. – Adhamjon shu kunni rosa intiq kutdi. “Ayajon, agar saralash sinovlaridan o'tolmasam, nima qilaman?” deb bezovta edi. Men doim “Sen, albatta uddalaysan!” derdim, dalda bo'lardim. O'ziga shukur, mana, askarlik xizmatiga yo'l oldi. Shunga...

Darhaqiqat, muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Adhamjon Jumanov askarlik maqomiga munosib topilganidan ko'ksi osmonda. U dilidagi faxr tuyg'usini quyidagicha izohlaydi:

– Harbiy xizmatga qiziqishimda ustozim Jahongir Ahmedovning katta o'rni bor. Sinf rahbarim Ruxshona Abdurahmonova esa Vatanga sodiq inson bo'lishni, dilimizda vatanparvarlik tuyg'usini singdirgan jonkuyar o'qituvchim. Askarlar safida qad rostlaganim uchun men ulardan minnatdorman. Askar bo'lib, egnimga harbiy libos kiyishni qancha orzu qilganimni bilsangiz edi. Bu niyatimni doim onamga aytardim. Hozirda Vatan posboni ekanimdan juda-juda faxrlanaman. Egnimdagi harbiy libos ortida katta mas'uliyat bor. U zimmandagi majburiyatni puxta o'zlashtirishim, tinchlik himoyachisi bo'lishim uchun fidoyi bo'lishga chorlab turadi. Tengqurlarimga bir gapni aytishni juda istardim, ya'ni Vatan oldidagi yigitlik burchingizni, albatta ado eting. Buning qay darajada sharafli ekanini egningizga harbiy libos kiygandagina anglab yetasiz.

Namangan viloyatining Norin tumanida voyaga yetgan oddiy askar Adhamjon Jumanov kasb tanlash borasidagi maqsadini sir tutdi. Ammo chin dildan tuyg'ularini izhor etdi: “O'zbekiston Respublikasiga sodiq farzand bo'lib xizmat qilaman!”



**Muhammadjon AHMADJONOV**

## BO'LAJAK TADBIRKOR

Tadbirkorlikning mamlakat rivojida katta o'rni bor. Chunki u iqtisodiyotning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Muhammadjon Ahmadjonovning maqsadi tadbirkorlar safida yurt ravnaqiga ulush qo'shishdir. Ayni fursatda esa Farg'ona viloyatining Qo'shtepa tumanidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan yigit xizmat ko'nikmalarini mukammal egallashga astoydil harakat qilayotgan ilg'or posbonlardan.

Oddiy askar Ahmadjonovning ta'kidlashicha, uning harbiy xizmatga moslashishi oson kechmagan. Ota-ona va to'rt opaning erkasi, oilaning kenjasi bo'lgan yigitni tushunsa bo'ladi.

Harbiy xizmatdagi qat'iy tartib, askarlik sinovlari mashaqqati uni obdan tarbiyalagani aniq.

– Harbiy xizmatdan avvalgi hayotim bilan askarlik davrimni solishtirib, har gal bir haqiqatni tan olaman, – deydi Muhammadjon mamnun qiyofada. – Armiya maktabi er yigitlar safida tarbiyalanishimga zamin yaratdi. To'g'ri, umumta'lim maktabini bitirganimdan keyin oilamizga moddiy tomondan yordam berish uchun fabrikada ishladim. Biroq yolg'iz o'g'il sifatida erka edim. Askarlik mas'uliyati va majburiyati irodamni tobladi, zimmandagi yigitlik burchini chuqur his etdim. Vazifam yong'in o'chiruvchilik mahoratini o'zlashtirish. Kuchli talab asosida olib boriladigan nazariy va amaliy mashg'ulotlarda harbiy bilimlarni egallab, zahmatli sinovlarda toblanyapmiz. Buning uchun o'z akamdek qattiqqo'l va talabchan, o'z o'rnida mehribon serjant va ofitser komandirlarimga tashakkur aytaman. Safdosh do'stlarim oddiy askarlar Anvar To'rayev, Xudoberdi Yo'ldoshev hamda Xurshid Mamalatipov bilan xizmatda o'z oldimizga qo'ygan maqsadimiz, o'z shiorimiz bor: “Doimo oldingi safda bo'lish!” Kelajakda tadbirkor bo'lishni niyat qilganman. Balki xizmat davomida maqsadim o'zgarar. Biroq qaysi sohada faoliyat yuritmay, elim, yurtim deb yashayotgan yoniq qabli insonlar qatorida bo'laman, albatta.



**Azizbek SAIDQULOV**

## MAQSADI – SHIFOKOR BO'LIH

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan har bir posbonning o'ziga xos ezgu maqsadi bor. Ammo barchasining niyati mushtarak, ya'ni Vatani va xalqiga munosib farzand bo'lish, sidqidildan xizmat qilish. Quvonarli jihati, ularning qalbidan o'rin olgan orzusi xizmat davomida yanada mustahkamlangan.

Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Azizbek Saidqulov

askarlik burchini a'lo darajada o'tab, kelajakda shifokor bo'lishni maqsad qilgan. Jizzax shahridan xizmatga chaqirilgan yigitning bugun shaxsiy tarkib orasida o'z o'rni va hurmati bor. Bu e'tirofni uning yaqin do'sti oddiy askar Toshpo'lat Rajabov quyidagicha ta'kidlab o'tdi:

– Do'stim Azizbek namunali xulqi, mashg'ulotlarda faolligi, safdoshlariga nisbatan jonkuyarligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, askarlik burchining ilk sinovlarida do'stlarning yordami katta ahamiyatga ega. Bu borada undan minnatdorman, xizmatga moslashuv jarayonida bir-birimizga yaqindan ko'makchi bo'ldik. Uning bilimdonligi, dunyoqarashi kengligini va ahdida sobitligini hurmat qilaman.

Oddiy askar Azizbek Saidqulov bilan suhbat jarayonida uning xobbisi xorij tillarini o'rganish ekanidan voqif bo'ldik. Albatta, tajribali shifokor bo'lish uchun buning ahamiyati katta. Yolg'iz o'g'illarining shifokor bo'lish niyati ota-onasi G'anisher aka va Oydiyoy opani ham quvontirdi. Demak, Azizbek kelajak maqsadi tomon dadil qadam tashlaydi, orzu ro'yobi esa o'z qo'lida.

**Zulfiya YUNUSOVA,**  
“Vatanparvar”



## TAVSIYANOMALAR EGALARIGA TOPSHIRILDI

Bugungi kunda yosh avlodni Vatan taqdiriga daxldorlik ma'naviy-axloqiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda qonunlarimizga yuksak hurmat ruhida voyaga yetkazish, erkin fikrlaydigan, mustahkam bilimli, jamiyatda o'zining munosib mavqeyini egallaydigan mustaqil qaror qabul qilishga qodir, mamlakat, xalq va oilasi farovonligi orzusida bo'lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ana shunday yoshlarni tarbiyalashda o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati o'z yo'nalishini aniq belgilab olib, samarali faoliyat yuritib kelmoqda.

Termiz shahridagi "Vatanparvarlar" bog'ida Surxondaryo viloyati tuman va shahar umumta'lim maktablarining "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faol a'zolariga imtiyozli tavsiyanomalarni topshirish marosimi o'tkazildi. "Yangi



O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori ostida o'tkazilgan mazkur tadbirda Surxondaryo viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi, faxriylar kengashi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat kengashi, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari hamda yoshlar ishtirok etdi. Tadbir davomida so'zga chiqqanlar bugungi kunda yoshlar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar

hamda imtiyozlar haqida tushunchalar berib, ulardan unumli foydalanib, yurtimizga munosib farzand bo'lib yetishishlarini ta'kidlab o'tdi. Shundan so'ng harbiy orkestr jamoasi tomonidan Vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlar ijro etildi. Faxriy qorovul shaxsiy tarkibining sahna chiqishlari va qo'ljangi elementlari yig'ilganlarning olqishiga sazovor bo'ldi.

### Muvofiqlashtiruvchi kengash

## YARIM YIL SARHISOBI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug boshqaruv apparatida hamkorlikdagi kuch tuzilmalari ishtirokida muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishi o'tkazildi.



Ta'kidlash kerakki, har yarim yilda o'tkaziladigan bu kabi yig'ilish Qurolli Kuchlar kuch tuzilmalari bilan huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar sarhisobi va bu borada yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tahlil qilish maqsadida tashkil etiladi.

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug boshqaruv apparatida o'tgan navbatdagi yig'ilishda okrug qo'mondonligi, Qarshi shahri harbiy prokuraturasi, Qarshi shahri harbiy sudi, Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari, Milliy gvardiya, favqulodda vaziyatlar boshqarmalari vakillari ishtirok etdi.

Yig'ilishda Qurolli Kuchlarda qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash, qo'shinlarning jangovar shaylik darajasini yanada oshirish, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilab borish, ularning huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish, yoshlar bilan ishlash, ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kabi masalalar muhokama qilindi.

Yilning birinchi yarmida erishilgan qator yutuqlar hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklar sarhisobi tinglanib, oldinda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi. Shuningdek, profilaktik tadbirlarning son va sifatini oshirishga kelishib olindi.

### Shonli yo'l

## HARBIY QISM 83 YOSHDA

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug Buxoro garnizonida joylashgan harbiy qismlardan biri tashkil etilganining 83 yilligi katta shodiyonalar bilan nishonlandi.



Tantanali marosimda so'z olgan okrug qo'shinlari qo'mondoni general-mayor Zaynobiddin Iminov harbiy qism shaxsiy tarkibining shu kunga qadar erishgan yutuqlarini e'tirof etib, sana munosabati bilan samimiy tabrikladi.

Xizmati davomida turli yutuqlarga erishgan, harbiy qism nufuzini oshirish uchun sadoqat bilan xizmat qilib kelayotgan bir guruh harbiy xizmatchilarga navbatdagi harbiy unvon, ko'krak nishoni hamda qimmatbaho sovg'alar tantanali ravishda topshirildi.

Harbiy xizmatchilarning oila a'zolari, faxriylar, keng jamoatchilik vakillari hamda ko'plab yoshlar ishtirok etgan mazkur tadbirda viloyatning

taniqli san'atkorlari, shuningdek harbiy orkestr jamoalari tomonidan ona Vatanimiz, yurtimiz o'g'lonlarini madh etuvchi jo'shqin kuy-qo'shiqlar ijrosi yig'ilganlar olqishiga sazovor bo'ldi.

Harbiy xizmatchilarning farzandlari uchun ko'chma o'yingohlar keltirilib, bolajonlar quvonchiga quvonch qo'shildi. Tadbirda harbiylar o'rtasida osh pishirish musobaqalarining o'tkazilishi bayramning yanada fayzli o'tishini ta'minladi. Bu kabi tadbirlar harbiy xizmatchilarning oldindagi vazifalariga yanada shijoat bilan yondashishlari hamda oilalari mustahkamligi uchun xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.



# BITIRUV TANTANASI

“O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasining harbiy internaturasi bitiruvchilariga diplom va harbiy unvonlar topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi.



Muallif suratiga olgan

Unda mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev, Mudofaa vazirligi tibbiy ta‘minot boshqarmasi boshlig‘i tibbiy xizmat polkovnigi Nosir Fozilov, shuningdek Sog‘liqni saqlash vazirligi mutasaddilari va akademiya mas‘ul ofitserlari, bitiruvchilar, ularning yaqinlari hamda Qurolli Kuchlar faxriylari ishtirok etdi.

Tadbirda avvalida dastlab mudofaa vazirining tegishli buyrug‘iga ko‘ra, akademiyaning harbiy internaturasini tamomlagan bitiruvchilarga navbatdagi “Tibbiy xizmat katta leytenanti” harbiy unvoni tantanali ravishda topshirildi.

Ma‘lumki, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev tashabbusi va topshiriqlariga asosan tashkil etilgan mazkur oliygoh Markaziy Osiyo mintaqasida tibbiyot sohasiga oid yagona oliy harbiy ta‘lim muassasasi hisoblanadi. Ushbu muassasada Mudofaa vazirligining Markaziy harbiy klinik hospitali moddiy-texnik bazasi va malakali tibbiyot mutaxassislarini o‘quv jarayoniga jalb etish orqali nazariya bilan amaliyot uyg‘unligi ta‘minlangan.



Akademiyaning asosiy faoliyat yo‘nalishi Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar uchun harbiy shifokorlarni tayyorlash, tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish hamda harbiy tibbiyotning dolzarb masalalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishdan iborat.

Tadbirda akademiya faoliyati haqida alohida to‘xtalib o‘tilib, shu kungacha erishilgan yutuqlar e‘tirof etildi. Shu asnoda mehmonlar harbiy tibbiyotning istiqboli bo‘lgan bitiruvchilarni ushbu unutilmas sana bilan qutlab, ularning kelgusidagi faoliyatlariga ulkan zafarlar tiladi.

Navbatdagi kunda esa O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasida “Rezerv va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash” bosqichini tamomlagan kursantlarning bitiruv marosimi o‘tkazildi.

Erta tongdan kursantlar Harbiy orkestr sadolari ostida Vatanga qasamyod qilish uchun saf tortdi. Dastlab akademiya rahbariyati vakillari so‘zga chiqib, yurt o‘g‘lonlari va ularning oila a‘zolari, shuningdek xalqimizning salomatligini saqlash hamda qayta tiklashda zimmalaridagi mas‘uliyatli burchni sharaf bilan ado etishlarini

tilab, kursantlarni mazkur quvonchli sana bilan samimiy qutladi. Shundan so‘ng kursantlar tantanali ravishda Vatanga qasamyod qabul qildi.

Mazkur tadbirda harbiy xizmatchilar, davlat va jamoatchilik vakillari, ota-onalar hamda yoshlar ishtirok etib, yurtimizda harbiy xizmatchilar uchun yaratilayotgan sharoitlar, ularning ijtimoiy himoyasi yo‘lidagi islohotlar haqida so‘z yuritdi va bitiruvchilarning keyingi xizmatlariga muvaffaqiyat tiladi.

**Katta leytenant  
Dilshod RO‘ZIQULOV  
“Vatanparvar”**

## Yoshlarga oid davlat siyosati – amalda

# “VATAN HIMOYACHISI BO‘LAMAN!”

“Bundan sal avvalroq kimdir menga hayotingda keskin o‘zgarish bo‘ladi desa, ishonmagan bo‘lardim. Oilaviy sharoitim tufayli atrofimdagi do‘stlarim bilan kunlarni maqsadsiz o‘tkazish, biror ishning boshini tutish istagining yo‘qligi sababli kelajagimga ishonchsiz qarardim. Kelajagim haqida qayg‘urgan ayrim insonlarning yordami bilan bularning barchasi tubdan o‘zgardi. Endi mening ham o‘z orzum bor – O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasiga o‘qishga kirib, Vatan himoyachisi bo‘lish”.

Safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatini o‘tash chog‘ida ana shunday ezgu maqsadga erishishga qaror qilgan Nodirjon Odilov kelgusi yili o‘z imkoniyatini sinab ko‘rmoqchi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi Ichki ishlar vazirligi qo‘shinlarini tayyorlash kafedrasiga birlashtirilgan Toshkent shahri Shayxontohur tumanidagi “O‘zbekiston” mahalla fuqarolar yig‘inidagi oila farzandi, “Yoshlar

daftari” ro‘yxatida turuvchi 2004-yili tavallud topgan Nodirjon Odilovning muammosi atroflicha o‘rganildi.

Mahalla yoshlari yetakchisi, akademiyaning Ichki ishlar vazirligi qo‘shinlarini tayyorlash kafedrasidan birlashtirilgan harbiy xizmatchilar va Respublika Bojxona qo‘mitasi xodimlari bilan hamkorlikda Toshkent shahri Shayxontohur tumani hokimiga safarbarlik chaqiruvi rezervi to‘lovi badalini qoplab berish bo‘yicha kiritilgan



taqdimnoma qanoatlantirildi. Nodirning harbiy xizmatga bo‘lgan qiziqishlari yuqoriligi, ammo moddiy imkoniyatlari cheklangani hisobga olinib, safarbarlik chaqiruvi rezervida harbiy xizmat o‘tashi uchun mablag‘lar qoplab berildi.

Xizmatni o‘tab kelganidan so‘ng kafedra harbiy xizmatchilari va yoshlar yetakchisi bilan o‘tkazgan suhbat natijasiga ko‘ra, qahramonimiz kelgusida Qurolli Kuchlar akademiyasida o‘qish istagi

borligini bildirdi. Mutaxassislar tomonidan Nodirjonga oliy harbiy ta‘lim muassasasiga o‘qishga kirish yuzasidan bir qancha kerakli tavsiyalar berildi.

**Podpolkovnik  
Jasur RAHMATOV,  
O‘zbekiston Respublikasi  
Qurolli Kuchlari akademiyasi  
Ichki ishlar vazirligi  
qo‘shinlarini tayyorlash  
kafedrasida katta o‘qituvchisi**



# “Kel-ey, sozim, so'zlashaylik” (esse)



1

...Bu mening Qahhor baxshi bilan ilk bora yuzma-yuz turib, soz va so'z sehrli olamiga sayr qilishim edi. Unda meni nimalar kutyapti, ahvoli ruhiyamda qay o'zgarishlar sodir bo'ladi, hali o'zim uchun ham noayon edi.

Tomoshagoh o'rtasiga o'rnatilgan ovoz kuchaytirgich oldidagi o'rindiqqa joylashib o'tirgan baxshi mayingina harakatlar bilan (*shu tobda uning o'zini tutishi kimdandir, nimadandir uyalinqirayotgan, muxlislar imtihoniga birinchi marotaba duch kelayotgan boshlovchi baxshiga mengzab ketardi*) sozini g'ilofdan bo'shatdi. Hayajondan titrayotgan barmoqlari bilan do'mbirani mehr-la bir sidra silab-siypaladi, so'ngra yuzida qat'iyat ifodalari uyg'onib, sozning qirshlarini ayovsiz tortdi. Uning aft-angoriga hal qiluvchi kurashga tayyorgarlik ko'rayotgan polvonga xos belgilar balqdi. Sozni quloqlari ostiga keltirgan baxshining lablari unsiz pichirlar, bu ahvot shohidi bo'lgan kishi esa u mangu hamrohi bilan suhbat quryapti, degan fikrga kelishi shubhasiz edi. Tafakkurim imkonlari darajasida xayolan baxshining lablaridan uchayotgan so'z marjonlarini shodaga tizishga urindim: “Otamdan qolgan yodgorim, o'zing mening yo'g'-u borim, chertmasam bo'lmas qarorim, o'zingni sinovga shayla, dilimni shodumon ayla...”

U ulkan savashga chog'lanayotganday yuzlab qora ko'zlar bosimi ostida peshonasiga qalqqan terni ro'molchasiga artib, o'zidan va sozidan mislsiz mo'jiza kutayotgan nigohlarni so'nggi bor birma-bir nazardan o'tkazdi. Yengilgina titrayotgan barmoqlar sovuq simlar ustidan bir aylanib o'tdi. Ilk chertim sukunat cho'kkan tomoshagohga taraldi: “Diring-diring”.

Keyin baxshining mo'jizakor barmoqlari ostida zir qaqshayotgan do'mbira nolalari avjiga chiqa boshladi.

Yo qudratingdan! Bu ne sinoat? Nahot bir parcha qurigan yog'ochning dardlari shu qadar teran bo'lsa?

Do'mbira sayrayaptimi yoki oshyonidan ayrilgan bandi bulbulning dod-u faryodimi bu?

To'planganlar misoli bir vujudga do'ngan. Ko'zlarda, qaroqlarda hayrat mujdalari jilvalangan. Jununvash qarsaklar yangragan. Bu soz, bu ovoz moziyning qa'ridan chiqib kelayotgandek edi. U azal va abad singari qadimiy edi.

*Hay, yorayyy, sayragan tillaringdan aylaniblar ketay, do'mbira!  
Voy, yorayyy, mo'jizakor barmoqlaringdan o'rgiliblar ketay, baxshil..*

2

Xalq og'zaki ijodi jonkuyari, hozirjavob qalamkash, zullisonayn shoir va olim Abduolim Ergashni viloyat jurnalistlar uyi binosi oldida uchratdim.

– Biror soat bo'sh vaqtingiz bormi? – salom-alikdan so'ng tomdan tarasha tushgandek savol berdi u kishi.

– Siz uchun bir soat emas, butun tun va kunni ajratsam ham kam.

– Qahhor kelyapti, bir suhbatini olaylik.

– Qaysi Qahhor? – ajablanib so'radim.

Abduolim aka yuzimga g'alati qaradi. Bu nazarda “Nahotki, el tanigan Qahhorni sen tanimasang?” degan ta'na bor edi.

– Marhum do'stim Qodir baxshining o'g'li, O'zbekiston xalq baxshisi Qahhor Rahimovni aityapman.

Domlaning ishlari g'alati, yurtimizdagi baxshi-oqinman deganining barini taniydi, Qahhor baxshini esa yo'rgakdalik paytida ko'tarib katta qilgan, desak, o'trik bo'lmas. Domla boshlagan baxshi-oqinlar yig'inining doimiy sarkori u.

Uyatdan yuzim duv qizardi, ammo yuragim hapriqiblar ketdi, men Qahhor baxshi Rahimovni oynayi jahon, matbuot nashrlari orqali g'oyibona tanir, mashhur Qodir baxshi Rahimovning o'rmini bosishga urinayotgan zurriyoti ekanini bilar, ammo shaxsan tanishish, suhbatini olish istagi kim necha yillardirki, yuragimning bir chekkasida armon bo'lib yashardi.

Qahhor baxshi bilan go'zal shahrimizning sokin go'shalaridan birida dildan suhbat qurdik. Birodalar, kim nima demasin, kurash haqida polvondan, ot ta'rifida chavondozdan, do'mbira vasfida baxshidan o'tkazib so'z aytish oddiy bandayi mo'minga xos xislat emas ekan. Baxshi o'z nomi bilan baxshi bo'larkan, hozirjavoblik uning naqshi bo'larkan, do'mbira haqidagi mashhur qo'shiq satrlarini aytishim baxshining dard-dunyasini yanada kengroq ochib yubordi:

*Kel-ey, sozim, so'zlashaylik,  
Sening asling yog'ochdandir.  
Yog'och desam, qahring kelar,  
Xurmo pishgan yog'ochdandir...*

– Yashang-ey, shoir, siz ham o'zimizdan ekansiz-da, iloho, do'mbirani suyib, ardoqlagan tillaringiz sayrashdan tolmasin. Mayli, uni birovlar yog'och bo'lagi deb o'ylasa o'ylayversin, ammo meni uchun u eng yaqin sirdosh, sadoqatli dardkash. Ko'pincha yolg'izlik domiga botganimda, boshimga tashvish tushganda do'mbira bilan “suhbatlashib” ovunaman. Dard-hasaratlar, quvonch-u shodliklarimni u bilan baham ko'raman. Ayyy, og'ayniyonlar, bu dunyoda do'mbiraga teng, qiyos bormi, aslida?..

3

## Baxshining onasi Moporxol momoning hikoyalariidan

Do'mbira Qahhorning egizagi, desam, xato bo'lmaydi. Rahmatli erim yo'rgakdagi Qahhorni bir suysa, sozini ikki suyardi. Qahhor bir parcha et chog'ida o'choq boshida kuymalanib, tandirga olov qalab yurganimda yig'lab qolsa, otasi rahmatli soz chalib ovutardi. Sizga yolg'on, menga chin, do'mbira sadosi yangrashi bilan yig'lab turgan chaqaloq tinib, ohangga quloq tutganicha bir zumda pishillab uyquga ketar, so'ngra otasi:

– Onasi, yig'loqi o'g'ling uxladi, – derdi.

Shu-shu, Qahhor do'mbiradan bir qadam ham uzoqlashmadi. Oyoq chiqarganidan so'ng otasi maktabga (*u kishi qishloq maktabida o'qituvchi bo'lib ishlardi*) ketganda do'mbirani popugidan sudrab yurardi.

– Buning bir kuni do'mbiramni sindirib qo'yadi, – deb koyinardi otasi.

To'rt yoshga kirganida bo'yiga moslab, qoshiqdan sal katta do'mbira olib berib qutuldi.

## Qahhor baxshi xotiralaridan

Uyimizda tez-tez baxshilar gurungi, gap-gashtak bo'lib turar, hech bo'lmaganda otamning besh-olti jo'rasi kelib:

– Qodir, yangilaridan aytib ber, – der, otam onamga qozonga o't qalatib, ovqat tadorigini ko'rdirar, so'ngra do'mbira chertib, doston aytishga tushardi.

Mehmonxonamizga ayvondan o'tib kirilardi. Ko'pincha menga xonadan joy yetmasa, shu yerda o'tirib olardim.

Hali soz, so'zning unchalik fahmiga yetmasam-da, davra tarqamaguncha joyimni tark etmasdim. Shunday gashtaklarning birida mehmonxona to'liblar ketdi, ko'pchilik ichkarida joy yetishmaganidan ayvonda chordana qurib o'tirdi. Men ham ularning safiga qo'shilib oldim. Otam shu kuni har kungidan ham jo'shiblar aytdi, do'mbira “sayradi”, desam, kam bo'lar, bir parcha yog'och nolalar qildi. Otam barmoqlarini boshi ustidan aylablar chaldi, qirshi tortilgan do'mbira siniblar ketay dedi. O'tiribman, vujudim zir qaqshab, kuy-qo'shiqning oxiri ko'rinmas, odamlar tarqalishni xayollariga ham keltirmasdi. Olti yoshli go'dak, turib ketay desam, davrani ko'zim qiymaydi, tun yarmidan og'ganda murgilab qolibman. Onam sekingina ko'tarib, joyimga keltirib yotqizibdi. Ko'p o'tmay, uyg'onib ketibman, do'mbira ovozi balandlagandan balandlab borardi, sakrab o'nimdan turib:

– Doston eshitmoqchi edim, meni kim bu yerga keltirdi? – deb xarxasha qilganicha tag'in davraga borib qo'shilibman.

Otam maydonlab kelay deb chiqqanida yana ko'zim ilingan ekan.

– Bolangga qarasang bo'lmaydimi? – deb onamni koyibdi.

– Nima qilay, boya joyiga ko'tarib kelgandim, uyg'onib ketib, toza g'ingshidi, oxiri “bor-ey, uyqudan qolsang, o'zingga”, deb chiqarib yubordim.

Otam:

– Buningning qulog'i do'mbiradan boshqa narsani eshitmaydi. Mayli, sen damingni olaver, Qahhorni yonimga olib kiramam, yotsa ichkarida yotar, – debdi-da, meni mehmonxonaga olib kiribdi...

(Davomi keyingi sonlarda)

Abdunabi ABDIYEV



# reativ fikrlashning mohiyati

Fikr yoki g'oya – bu aqlimizning ijod faoliyati mahsuli. Aqlimizda turli muammolarning yechimi yoki yangiliklar haqida fikrlar tug'iladi. Fikrlar odatda, biror hayotiy muammo yechimini izlash jarayonida shakllanadi. Biror bir vazifa haqida o'ylaganda yoki biror qiyin vaziyatga tushganda inson fikrlashga majbur bo'ladi. Ba'zi hollarda insonda istamagan holda ajoyib fikr tug'ilishi mumkin.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha "create" so'zidan olingan bo'lib, "yaratish" ma'nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tag zamirida beqiyoslik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish, kreativ bo'lish uchun kishi ko'proq kreativ insonlar bilan muloqot qilishi va hamisha izlanishda bo'lishi lozim. **Har qanday ko'nikmani shakllantirish mumkin bo'lganiday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko'nikmasini rivojlantirish mumkin.** Bu o'quvchilarni noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Kreativlik bo'yicha D. Veksler, A. Maslou, J. Guilford, E. Torrens tomonidan olib borilgan tadqiqotlar kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Bu auditoriyadagi muhit o'quvchilarda fikrlash tarzining shakllanishi, o'qituvchining yondashuv va strategiyalari elementlarini o'z ichiga oladi.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni **berilgan bilimlarni takrorlash**

**orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir.** Masalan, ingliz tilida so'zlarni yodlab, grammatika qoidalarini "suv qilib ichib yuborgan" bo'lsangiz-u, insho yozolmasangiz, barchasi bekor.

Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Albert Eynshteyn "**Tasavvur bilimdan muhim**", deganida aynan mana shu jihadni nazarda tutgan. Ko'pincha noodatiy fikrlar, yechimlar inson xayoliga kutilmaganda keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim. Inson miyasi o'z ishini "yengillashtirish", "qulaylashtirish" uchun qoliqlar va stereotiplardan foydalanadi. Stereotiplar shu paytgacha ma'lum bo'lgan va umumqabul qilingan fikrlardir. Ular asosida fikrlash bizga hech qanday yangi g'oya bermaydi. Qoliqlarning yuzaga kelishida jamiyatda ustuvor bo'lgan ijtimoiy fikr, mediamahsulotlarda taqdim etilayotgan shakl va ko'rinishlar yetakchi o'rin tutadi. Inson ommadan ajrab qolmaslik nuqtayi nazaridan hammaning fikriga qo'shiladi. Qolaversa, "oqim bo'yab suzish" mustaqil fikrlashdan ko'ra oson tuyuladi.

Stereotiplar orqali fikrlaganda muayyan mavzu bo'yicha inson ongiga "so'rov" berilganida odatiy ma'lumot va mulohazalar yuzaga keladi. Kreativ fikrlash ta'siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya'ni har qanday shaxs u yoki bu darajada kreativ fikrlash qobiliyatiga ega. Amerikalik olim D. Veksler "Kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsiga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga

bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o'ziga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi", deb ta'rif beradi.

**Kreativ qobiliyatlar faqat yangi g'oyalarni yaratishdagina emas, balki hayot tarzining yoki alohida olingan aspektlarni yaxshilash va shaxsning ichki dunyosi rivojlanishida muhim o'rin tutadi.** A. Maslou kreativlikni barchaga xos tug'ma ijodiy yo'nalish, atrof-muhitning ta'sirida ko'pchilikda yo'qolib ketuvchi faoliyat deb hisoblagan. Amerikalik psixolog olim Joy Pol Guilford o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida kreativlik va intellektni birinchi marotaba taqqosladi. U intellekt strukturasi modelini yaratishda tafakkurni konvergent va divergent turga ajratdi.

Konvergent tafakkur (*lotincha "convergere" – "bir yo'ldan"*) tafakkur formasi bo'lib, muammoning bir qancha yechimlaridan faqat yagona to'g'risini tanlashdir. Konvergent tafakkurning asosida intellekt yotadi, shuning uchun intellektual tafakkur deb ham ataladi. Divergent tafakkur (*lotincha "divergere" – "bo'linish"*) ijodiy tafakkur metodlaridan biri bo'lib, berilgan bir muammoning bir qancha yechimlarini topish, "bir vaqtning o'zida turli yo'nalishlarda izlanish, ya'ni bir muammoga bir nechta to'g'ri javoblar borligi va original ijodiy g'oyalarning tug'ilishiga xizmat qiladi. Divergent tafakkurning negizini esa kreativlik tashkil etadi. **Kreativlik tafakkurning qay darajada shakllanganiga bog'liq bo'lib, shaxs tafakkuri qanchalik yaxshi rivojlangan bo'lsa, kreativ fikrlashi ham shunchalik rivojlangan bo'ladi.** Biroq kreativlik faqatgina tafakkurning yuqori darajada rivojlangani bilan hosil bo'lib qolavermaydi, ya'ni intellektual salohiyati yuqori shaxs har doim kreativ fikrlay olmasligi mumkin.

Guilford o'z kreativlik strukturasi divergent tafakkurdan tashqari o'zgaruvchanlik qobiliyati, yechimning aniqligi va boshqa intellektual parametrlarni birlashtirdi. Shuningek, u kreativlik va intellekt o'rtasida o'zaro uzviy aloqa borligini isbotladi. Biroq Guilford o'z tajribalarida yuqori intellektuallilarning test yechish davomida ijodkorlik xulqini har doim ham ko'rsatmasligini, kreativ past intellektualli bo'lmashligini aniqladi. Shunday ekan, divergent tafakkur kreativ jarayonning barcha xususiyatlarini aks ettirmaydi.

E. Torrens fikricha, "kreativlik" tushunchasi negizida quyidagilar yoritiladi: muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammoning yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlik. Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin. **Umuman olganda, kreativlik – yangi, original g'oyalarni yaratish, fikrlashning nostandart shakli, berilgan muammolarga omadli yechimlar topish.** Kreativ tafakkur esa revolyutsion tafakkur bo'lib, u konstruktiv xarakterni ifodalaydi.

Kreativ fikrlashda ta'lim-tarbiya jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ fikrlash bugungi kunda yoshlar egallashi kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir. Mazkur ko'nikma yoshlarga bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalana oladigan, oddiy savodxonlikdan ko'ra ko'proq natija, ya'ni tashabbuskorlik talab qilinayotgan, bir so'z bilan aytganda, XXI asr ko'nikmalariga ega malakali kadrlarga talab ortayotgan bir paytda ushbu jarayonga moslashishiga va raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

**G'ildirakning kashf etilishidan boshlangan yaratuvchanlik namunalari bugun koinotda kezib yuribdi.** Innovatsiyalar kundalik turmushimizda qulayliklar yaratadi, og'irimizni yengil, uzog'imizni yaqin qiladi. Shu tarzda kreativlik taraqqiyotning ajralmas bo'lagiga aylangan. Barcha sohada ijodiy fikrlovchi mutaxassislarga talab katta. Dunyoga mashhur dasturiy mahsulotlar, mobil telefonlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar mutaxassislardan har kuni yangi g'oya so'raladi. **Mehnat bozorida kreativ fikrlovchi mutaxassislarga talab oshib borayotgan ekan, ta'lim jarayonida yoshlarning noodatiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, rivojlantirish dolzarb vazifadir.** Haligacha ta'lim tizimida ko'plab yondashuv va metodlar ijodiy fikrlash emas, talqin va tahlilga, ya'ni berilgan ma'lumotni tushunib, to'g'ri yetkazishga, nari borsa, bir necha axborotni umumlashtirib, xulosa chiqara olishga yo'naltirilgan.

**Xulosa qilib aytganda, kreativ fikrlash jamiyat hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan, shaxsning tafakkuri bilan bevosita bog'liq bo'lgan jarayon hisoblanib, shaxsda, ayniqsa yoshlarda ushbu ko'nikmani shakllantirish kelgusida mamlakat taraqqiyotining muhim elementlaridan biri hisoblanadi.**

Yoshlarda kreativ fikrlashni shakllantirish va rivojlantirishda quyidagi jihatlarga ahamiyat qaratish lozim. **Birinchi**dan, shaxs tarbiyasida bolalikdan o'z fikri muhim ahamiyat kasb etishini va jamoada o'z o'rniga ega ekanini his qildirib borish. **Ikkinchi**dan, bugungi kunda jamiyatda shakllangan dogmatik qarashlardan voz kechish. **Uchinchi**dan, boshqaruv jarayonida avtokratik usullardan ko'ra demokratik usullarni ko'proq qo'llash. **To'rtinchi**dan, kreativ fikrlaydigan shaxslarning g'oyalari va qarashlarini hurmat qilish hamda ularni qo'llab-quvvatlash lozim.

Zero liderlar jamiyatda lokomotiv sifatida har doim o'z faoliyatini amalga oshiradi. Bugungi kunda liderlarning aksariyati kreativ fikrlovchi kishilardir.

**Sherzod YUVASHOV,**  
**NamMQI Ijtimoiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori**



2024-yilda Chig'atoy ulusi tashkil etilganiga 800 yil to'ldi. Qizig'i shundaki, qo'shni Qozog'iston Respublikasida Jo'ji ulusining 800 yilligi keng nishonlanmoqda, konferensiyalar o'tkazilmoqda, kitoblar chiqmoqda. Qozog'iston tarixida yirik rol o'ynagan davlat arboblari Alixan Bukeyxanov, Shokan Valixanov, Yermuxan Bekmaxanov, Sanjar Asfandiyarov Jo'jixon avlodiga borib taqaladi. Bizda esa bu tarixiy voqea nimagadir umuman eslanayotgani yo'q, afsuski.

ziyolilari, jadid bobolarimiz tuzgan adabiy-badiiy to'garakni ham behuda "Chig'atoy gurungi" deb atashmagan. Qo'shni davlatlarda ham Movarounnahr va Xurosonda qo'llangan, Alisher Navoiy go'zal asarlar bitgan turkiy tilni chig'atoy tili deb atashgan".

Nimagadir Chig'atoy ulusi tarixi bizning ilmiy doiralarda ancha kam tadqiq qilinmoqda. Maxsus Chig'atoy ulusi tarixi mavzusi ustida tarixchilar Gulmira Ochilova, Sevinch Ulashova, Sanjar Bekmurodov ilmiy tadqiqot olib bormoqda. Lekin, shunga qaramay, Chig'atoy ulusi tarixiga e'tibor ancha kam.

Ayni shu davrda mo'g'ullarning turklashishi, o'troqlashishi va islomga kirish hollari butun mamlakat bo'ylab kuzatildi. Baroqxon hukmronligi vaqtida Xaydu ko'rsatmasiga muvofiq, Mas'udbek tomonidan Buxoro qayta tiklanadi. Farg'ona vodiysida yangi shahar – Andijonga asos solinadi. Kebakxon (1318–1326) davrida qarorgoh Qashqadaryoga ko'chiriladi, qadimiy Nasaf yaqinida Qarshi shahri barpo etiladi. Ulus Erondagi kabi ma'muriy birliklar hamda soliq undiriluvchi tumanlarga (Farg'ona va Qashqarda – o'rchin) taqsimlanadi, yagona pul birligi – kebakiyga o'tiladi. Ammo mo'g'ul mulklarini birlashtirish va markazlashtirish maqsadida o'tkazilgan ma'muriy va moliyaviy islohotlar siyosiy tarqoqlikka barham berishga qodir emas edi. XIV asr o'talarida Chig'atoy ulusi Movarounnahr va Mo'g'uliston bo'linib ketgan. 1370-yili Movarounnahrda Amir Temur saltanatining o'rnatilishi chig'atoylar hokimiyatiga barham berdi.

Shuningdek, ko'plab nasroniy bo'lgan mo'g'ul ayollari ba'zan islomiy binolar va musulmon ulamolarning homiysi bo'lgan. Masalan, Ibn Battuta ham Markaziy Osiyoga qilgan tashrifida mo'g'ul ayollarining qurdirgan xonaqohlari, masjid va madrasalari hamda zoviyalar haqida aytib o'tadi. Ularni oliyhimmat, hotamtoy deb tasvirlaydi. Hatto bir safar Xorazmda bo'lganida amirning To'rabeka nomli zavjasi o'zi qurdirgan zoviyada ziyofat bergani va turli sovg'a-salomlarni tuhfa etgani xususida yozib qoldiradi.

## MIGRATSIYA VA GEOSIYOSAT

Tarixchi Sevin Ulashovaning yozishicha, Chingizxon va o'g'illari Sharqiy Turkistonni ishg'ol etgach, Movarounnahr va Xurosondagi ko'pgina shaharlarning musulmon aholisini sharqqa ko'chirib, Beshbaliqdan Xonbaliqqa (Pekin) qadar cho'zilgan Shimoliy Xitoy mintaqalariga joylashtirdi. Shuningdek, Chingizxon vorislari davrida rivoj topgan Turkiston-Xitoy tijorati ham Xuroson va Movarounnahr savdogarlarini bu yerga jalb qildi. Natijada bu hududda Movarounnahrning shahar va qishloqlari nomi bilan bog'liq kasabalar, xususan Pekinga yaqin joyda samarqandlik muhojirlarning "Samarqand" nomli kasabasi paydo bo'ldi. Movarounnahr qo'lga kiritilgach, mo'g'ullar mahalliy aholini, xususan tojiklarning aksariyatini Sharqiy Turkiston va Shimoliy Xitoy hududlariga ko'chirdi. Natijada Movarounnahrda forsiy zabon aholi kamayib, turklashish jarayoni kuchaydi.

## SIYOSIY HAYOTDA AYOLLAR O'RNINI

Chig'atoy ulusida, umuman, mo'g'ullar imperiyasida ayollarning o'rni yuqori bo'lgan. Asosiy diqqatni tortadigan joyi shuki, turli mo'g'ul xalqlari orasida asl avlod vakillari bo'lgan ayollar jamiyatning siyosat, iqtisodiyot yoki din kabi turli sohalarida faol ishtirok etgan taniqli shaxslar bo'lganini aks ettiradi. Ushbu hududlarning aksariyatida ayollarning jamiyat uchun ahamiyati regent sifatida namoyon bo'ladi. Xonning merosxo'ri nomi bilan siyosiy faoliyat olib borgan. Masalan, ulusning hukmdori sifatida bir ayol O'rgina Xotun (1251–1260) siyosiy boshqaruvda paydo bo'ladi. Jamol al-Qarshiy Qora Xulaguning zavjasi O'rgina Xotun yosh bo'lgan o'g'li Muborakshoh IV nomidan taxtni boshqargani xususida aytadi hamda uning hukmronligi 9 yil va bir necha oyga qadar davom etgani haqida ma'lumot beradi.

Mirzo Ulug'bek unga quyidagicha ta'rif beradi: "U Qora Xulaguning xotini edi. Undan Muborakshoh degan bir o'g'il qoldi. Eri vafotidan keyin o'g'li yosh bo'lgani uchun uning nomidan saltanat ishlarining mutasaddisi bo'ldi. U g'oyatda viqorli, xushxulq xotun edi. Musulmonlarning barcha ishlariga mayl ko'rguzardi. Musulmonlar mol-u joni rioyati va muhofazasida biror daqiqqa ham kechikmasdi". O'rgina Xotun o'n besh yildan ko'proq vaqt davomida Markaziy Osiyoda faol siyosat olib bordi. Bu vaqt ichida u ulusning oliy hokimiyati sifatida tan olingan, Markaziy Osiyoni ketma-ket to'qqiz yil davomida yagona hukmdor sifatida tinchlik bilan boshqargan va ikki fuqarolik urushidan muvaffaqiyatli chiqqan boshqaruvchi sifatida tan olindi.

Ko'p holatlarda mo'g'ul hukmdorlari onasining e'tiqodi o'g'illarining e'tiqodiga mos kelmasligi tasdiqlangan.

## XULOSA O'RNIDA

Chig'atoy ulusida aslzodalar ko'pchiligi xristian, moniy yoki buddizm dinlari namoyandalari bo'lib, diniy va madaniy nuqtayi nazardan bag'rikeng bo'lgan. Bu tamoyil hozirgi O'zbekiston bag'rikenglik siyosatiga to'liq javob beradi. Shuningdek, Chig'atoy ulusida Yevrosiyo bo'yicha savdo-sotiq rivoj topgan bo'lib, migratsiya natijasida madaniy almashinuv kuchaydi. Hozirgi kunda ham yurtimiz aholisi faol mehnat migratsiyasini boshidan kechirmoqda.

Yana bir muhim tarixiy fakt: aynan Chig'atoy ulusida Markaziy Osiyoda turklashish jarayoni kuchaydi. Aynan o'zlik masalasi birinchi o'ringa chiqdi. Nazarimda, Chig'atoy ulusi tarixini har tomonlama chuqur o'rganishimiz lozim. Chunki u mintaqada kechayotgan barcha mafkuraviy, geosiyosiy va iqtisodiy muammolarning tarixiy ildizlarini ochib berishga ko'maklashadi. Kerak bo'lsa, Chig'atoy ulusi tarixi bo'yicha mintaqaviy konferensiyalar va yubiley o'tkazilsa, Markaziy Osiyo yoki yagona Turon g'oyasi amalga osharmidi?..

**Baxtiyor ALIMJONOV,**  
tarix fanlari nomzodi  
(oyina.uz)

# Chig'atoy



## ulusida siyosat

Ma'lumki, 1224-yilda Chingizxon o'z imperiyasini to'rt qismga bo'ldi va Movarounnahr, Yettisuv va Shimoliy Afg'onistonning bir qismini Chig'atoyga ulus qilib berdi. Nimagadir oxirgi 75 yilda Chig'atoy ulusiga juda kam ahamiyat berilgan, tarixiy tadqiqotlar yo'qsil, OAVda va siyosiy tadbirlarda Chig'atoy ulusi haqida oz gapiriladi. Buning asosiy sababi tarixiy ongimizda va tarixiy tadqiqotlarda Chig'atoy ulusi haqida yaxlit va tushunarli ma'lumot yetishmasligi yoki u haqda noto'g'ri va noilmiy ma'lumotlar mavjudligida, nazdimda.

Aytib o'tish joizki, Chig'atoy ulusi rasman 1224-yildan 1370-yilgacha mavjud bo'lgan. Mazkur ulus parchalangandan so'ng Sharqiy Turkistonda XVII asrgacha hukmronlik qilgan. Qizig'i shundaki, Chig'atoy ulusi bevosita va bilvosita Amir Temur faoliyati va Temuriylar siyosati iqtisodiy va madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan. Quyida Chig'atoy ulusi hamda tariximiz, hozirgi kunimizga bu ulusning ta'siri haqida bir-ikki og'iz fikr bildirib o'taman.

## TARIXIMIZDAGI AHAMIYATI

Mashhur filolog va blogger Eldor Asanov Chig'atoy ulusi haqida shunday yozadi: "Ko'plab manbalarda O'zbekistonda hukmronlik qilgan sulola vakillari to'g'ridan to'g'ri Chingizxon avlodlari hisoblanadi, ular Chig'atoy ulusi, Shayboniylar, Ashtarxoniyalar va Mang'itlar. Bundan kelib chiqadiki, qariyb 700 yil mobaynida O'zbekistonni mo'g'ullar boshqargan".

Ijtimoiy tarmoqlarda bir necha yillardan beri ko'plab postlar qo'yilmoqda, ayniqsa "Facebook"da. Masalan, Rustam Iqbol yozmoqda: "Chingizxon bosqinidan so'ng O'zbekiston hududining katta qismi Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoy (1183–1242) qo'l ostida bo'lgani sababli uzoq muddat bu mulkni Chig'atoy ulusi deb ataganlar va ular gapirgan tilni keyinchalik chig'atoy deb atashgan. Usmoniylar, Safaviylar, Qojorlar va boshqa qo'shni davlatlar ham o'z tillarini farqlab turish uchun bizning hududimizda ishlatiladigan badiiy tilni "chig'atoy tili" yoki "lahjasi" deb nomlagan. Sohibqiron davrida 1404–1405-yillari Samarqandda safarda bo'lgan ispan elchisi Don Rui Gonsales de Klavixo ham mahalliy turkiy xalqlarni chig'atoylar deb atagan. XX asr boshlarida bir guruh o'zbek

## QISQACHA SIYOSIY TARIXI

Chig'atoy vafotidan so'ng Mangu qoon va Botuxon Chig'atoy ulusini mulk sifatida tugatib, uni Tuli va Jo'ji vorislari o'rtasida taqsimlashga kelishib olgan. 1251-yili imperiya poytaxti Qoraqurumda bo'lib o'tgan qurultoyda Mangu qoon etib saylangach, chig'atoy xonzodalarning ko'pchiligi O'ktoy qoon avlodlari qatori qat'l qilingan. Chig'atoy ulusini Mangu qoon va Botuxon bo'lishib olgan. Movarounnahr Botuxonga qaram bo'lib qolgan.

XIII asrning 60-yillarida Chig'atoyning 6 farzandi Baydarning o'g'li Olg'u (1261–1265) chig'atoylar hokimiyatini qayta tiklashga erishadi. Olg'u vafot etgach, uning vorislari – Muborakshoh va Baroqxon mahalliy aholi bilan yaqinroq munosabatda bo'lish maqsadida musulmon dinini qabul qilgan. 1266-yili Chig'atoy ulusi xoni qarorgohi Yettisuvdan Movarounnahrda – Ohangaronga ko'chiriladi. Movarounnahr XIV asr boshlariga kelib o'zini o'nglay boshladi, jumladan Andijon va Qarshi shaharlariga asos solindi, Kebek davrida pul islohoti o'tkazildi. U ikki xil kumush tanga: yirik – dinor va mayda – dirhamlarni zarb ettirdi. Dinor 2 misqolga teng, dirham esa misqolning 1/3 iga teng edi.



Otashin shoir,  
tarjimon va  
dramaturg Usmon  
Nosirning onasi  
Xolambibi Ahmad  
Oxund qizining  
yorqin xotirasiga  
bag'ishlayman.



Usmon Nosirning onasining ismi Xolambibi edi. Xolambibi asli namanganlik bo'lib, Adham Oxund va Salima otinlarning farzandi edi. U kamolga yetgach, Mamathoji ismli iymon-e'tiqodli insonga uzatildi. Ular bir farzand ko'rdilar. Uning ismini Usmonxon deb atadilar. Ming afsuski, Usmonxon 4 yoshga to'lganda otasi vafot etdi. Shundan so'ng Xolambibini qo'qonlik Nosirhojiga turmushga berishdi. Tirnoqqa zor bo'lib yurgan Nosirhoji Usmonxonni o'z farzandidek qabul qildi. Bu xonadondagi kelinga, farzandga bo'lgan e'tiborni ko'rgan Xolambibi ro'zg'orga mehrini berib xizmat qildi. Sadoqat va muhabbat bilan yashadi.

Uni qaynonasi Nodirabonu e'zozlab, "Ipak kelinim", deb atar edi. Xolambibi bu xonadonda xuddi farishtadek uchib yurardi. Tovushi hech qachon baland chiqmagan. Hech vaqt, hech kimga jahll qilmagan. Mayin ovozda so'zlar, mayin qadam tashlar, yurganda yelkasi uzra qirq o'rim sochlar mayin tebrantar edi.

Erta tongdan hovli-yu gulzorni "yog' tushsa, yalagudek" qilib tozalab, suv sachratib chiqar edi. Uning qozon-o'chog'i hech qachon qora qurum ko'rmagan. Saharda rayhonlarga suv quyib, qo'llarida tebratib chiqardi. Birpasda hovlini rayhon hidi tutib, iforlar shamol yo'nalishida qo'shnilarnikiga o'tar edi.

Xolambibi ilmi, ma'rifatli bo'lib, qo'shni kelinlar gurgungga chiqsa, o'zbek xalq dostonlaridan aytib berib, ularni hayron qoldirardi. Uning supurgilari uch xil bo'lib, birinchisi bilan xonalarni, ikkinchisi bilan hovlini, uchinchisi bilan tashqarini supurardi. Xonalarni supurgan supurgisini ishlatib bo'lgach, toza suvda chayib, oq matodan tikilgan maxsus xaltaga solib, bir chekkaga, hovli va hovlidan tashqarini supuradigan supurgilarni esa ayvonga, hech kimning ko'zi tushmaydigan taxta orasida saqlar edi. Qor-yomg'irli kunlarda uylariga kelgan mehmonlarning oyoq kiyimlarini vaqt topib, loyini tozalab, yarqiratib artib qo'yar edi. Bunday iltifotni boshqa joyda ko'rmagan mehmonlar uni duolar qilardi. Xolambibi qaynonasi Nodirabonuning ko'ngliga yo'l topib, xuddi qiziday mehr bergani bilan e'zozga loyiq edi. U yopgan qat-qat patirlar dasturxonga chiroy berib, pishirgan taomlari og'izda erirdi.

Asli qo'qonlik bo'lgan Nosirhoji Masodiqov paxtachilik bo'yicha mutaxassis bo'lgani uchun Namanganning yirik paxta zavodiga ishga yuborildi.

1912-yil 13-noyabrda Nosirhoji Masodiqov va Xolambibi Adham Oxund qizini Alloh Ravzaxon, undan keyin ketma-ket Rohatxon, Inobatxon ismli qizlar bilan siyladi.

Xolambibida go'dak bolalarni parvarishlash va tarbiyalashda katta tajriba bor edi. Qo'qondaligida jondek yaqin ovsini Turdixon vafot etdi. Uning ortida to'rtta norasida go'dak: Nabijon, Alijon, G'anijon va to'rt oylik Vasijon qoldi.

Turdixon Xolambibi uchun eng yaqin sirdosh, darddosh va suhbatdosh edi. Ularni ko'rgan odam opa-singil deb o'ylardi. Qaynotasi



# JADIDNING ONASI

Masodiqboyning yigirma besh xonali katta hovlisida ular deyarli har kun mehmon kutardilar. Ularning eshigida hech qachon xizmatkor bo'lmagan. Bu xonadonga kelganlarni kelinlar "Atoyi xudo", deb mehmon qilganlar. Kelinlar kun davomida chumolidek mehnat qilib, oqshomlari dostonlar o'qib, chevarchilik bilan mashg'ul bo'lar edilar. Ovsini Turdixonning to'rtinchi bolasiga og'iroyoq bo'lganini birinchi bo'lib sezgan Xolambibi uni darhol avaylashga o'tdi. Ovsinining rangi dokadek oqarib, sal narsaga nafasi tiqilib, hansirab qolayotganini ko'rgach, "Bundan buyon tandinim, qozon-o'choqning boshiga bormaysiz. Kirlarni yuvishni xayolingizga keltirmang", deya ro'zg'orning og'ir yumushlarini o'z zimmasiga oldi. Xolambibining madadi tufayli ovsini eson-omon chaqalog'ini qo'lga oldi. Ammo Turdixonning sog'lig'i tiklanmadi. Go'dakka deyarli Xolambibi qarardi. Chaqaloq to'rt oylik bo'lganida Turdixon ovsinini yoniga chaqirib: "Xolambibi, menga bir nima bo'lsa, bolalarimni hech kimga va hech qayerga bermang. Ayniqsa, murg'akkina Vasijon sizni hidingizga o'rgandi, uni bag'ringizdan uzoqlashtirmang", dedi. "Yo'q, unday demang, opajon, sizdek farzand ko'rib, xastalangan kammi? Biroz o'tib, tuzalib ketasiz. Siz hamma qatori menga ham tog'dek tirgaksiz, suhbatdoshsiz, maslahatgo'yim, duogo'yimsiz. Yomon xayollarga bormang. Hali bu bolalarning huzurini ko'rasiz", dedi. Ammo Xolambibining aytganlari bo'lmadi. Ovsinining tongga borib joni uzildi. Uning bu olamni tark etishi Xolambibi uchun og'ir edi. Ammo,

nachora, taqdir-peshona. Uni hech kim o'zgartira olmaydi. Ovsinining to'rt bolasini to'osmir yoshigacha Xolambibi jonida asrab katta qildi.

\*\*\*

Ko'zlarida yulduz yongan Usmonxon olti yoshdan arab alifbosini bobosidan o'rgandi. U maktabga borgach, eng a'lochi o'quvchi bo'ldi. Rus tilini o'zi mustaqil o'rgandi. Sevgan fani esa adabiyot edi. Uning uchun eng yaxshi sovg'a kitob edi.

\*\*\*

"Onajon, siz men uchun ilhomim parisisiz. Meni tongda uyg'oting. Sizga eng yaxshi she'rilarimni o'qib beraman", derdi u.

Uning o'g'li olamga hayrat bilan boqqanida juda yosh edi. U misli ko'klam, bag'ri mavj urgan daryo edi.

Xolambibi o'g'lining qiyofasida husni Yusufni ko'rsa, kitobdan bosh ko'tarmay, tunlarni tongga ulaganida olamlarga dars beruvchi donishmandlikni ko'rardi.

U bilan faxrlanardi.

Usmon Nosir maktabni a'lo baholarga bitirgach, Moskvadagi Kinematografiya institutining Ssenariy fakultetida, undan so'ng Samarqand davlat universitetining Til va adabiyot fakultetida tahsil oldi.

20 yoshligida uni butun mamlakat taniy boshladi. Ustozi Cho'lponning asarlarini u ilohiy bitiklar deb tushunardi.

Zamona ijod ahliga shafqat qilmayotgan bir vaqtda o'g'lining Toshkentda yolg'iz qolishini istamagan



Xolambibi har kuni Nosirhojiga: "Xojam, Usmonxonning qoni qaynoq, haqiqatparvar, xalqparvar. She'rlarining har satri mash'aldek tunlarni yoritmoqda. Iltimos, uning oldiga ko'chib ketaylik", deydi. Ayolining ko'z yoshlariga chidolmagan Nosirhoji oilasi bilan Toshkentga ko'chib keldi. Dastlab Chaqar mahallasida ijarada yashadilar. So'ngra aziz do'sti, taniqli pedagog Olim Sharafuddinov topib bergan Sebzor dahasi, Qoziko'chadagi 37-uyini sotib oldilar.

Hamma yaxshi ketayotgan edi. Tuhmat balosi yopishishiga Usmonning butunittifoq miqyosidagi shon-shuhrati bo'ldi. Moskvada o'tgan O'zbekiston adabiyoti va san'ati dekadasi so'ng Pushkin vafotining 100 yilligi munosabati bilan plenum o'tkazildi. Moskvadagi Markaziy adabiyotchilar uyida butun Ittifoqdan shoir-u yozuvchilar, adabiyotchi-yu tanqidchilar yig'ilgan. Shu kechani boshqarib borayotgan shoir Bezimenskiy Pushkinning ijodi, u qilgan tarjimalar haqida gapirib, misol tariqasida nemis shoiri Gyotedan parcha o'qib bergan... Shunda zalda o'tirgan Usmon Nosir birdan o'rnidan turib: "Kechirasiz, siz hozir Gyote asaridan emas, Shillerdan parcha o'qidingiz", deb yuboradi. Hamma "gur" etib Usmonga qaragan. Bezimenskiy biroz sarosimaga tushib, uni sahnaga taklif qilgan va "Kimsiz?" deb so'ragan. Usmon baland ovozda: "Men o'zbek shoiri Usmon Nosir bo'laman", degan. Bezimenskiy "Siz meni tuzatdingiz. Shiller asarlari bilan tanishmisiz?" deb so'raganida, Usmon: "Men bu asarni yoddan bilaman", deya javob qilgan va shunday mahorat bilan o'qiganki, Bezimenskiy uni quchoqlab, zalga qarata: "Mana, bizning zamonaviy Sharqimiz!" deb xitob qiladi. Shundan so'ng Moskva gazetalarini ertasiyayoq uning she'rlarini rus tiliga o'girib, "Sharqda Pushkin paydo bo'ldi" rukni ostida chop etgan. Uning bu muvaffaqiyati Moskvada ham, Toshkentda ham o'ziga ko'plab dushmanlar orttirdi (*Nodira Rashidova. "Yetti sayyora" asaridan parcha*).

\*\*\*

O'sha-o'sha, o'g'lining shon-shuhrati yoyilgandan yoyildi. Xolambibining mushfiq qalbiga esa ulkan xavotir yopirilib kirdi. Uning uchun oddiy va buyuk onalik baxti yetarli edi. U hamma qatori o'g'lining to'yini ko'rgisi, sovchilikka borib, qudali-andali bo'lmoqchi edi.

- Usmonxon, sizni so'rab, uyimizga ham muxlislaringiz kelmoqda. Mening kelin borasidagi orzularim juda baland, o'g'lim.

- Xavotir olma, aya, sen uzoqqa, chekka bir go'zal qishloqqa sovchilikka borasan. O'sha yerdagi yomon ko'zlardan panada yurgan qizni kelinlikka tanlaysan. U qiz senga yoqsagina, men o'shanga uylanaman. U albatta o'zbek qizi bo'ladi.

Ularning suhbatiga aralashgan singlisi Inobatxon:

- Akajon, nega siz bir umr ayamni senlaysiz?

- Eh, tushunmagan. Ayam men uchun Allohdan keyin turadi. Xuddi Allohga siz deb murojaat va munajat qilolmaganimdek, ayamga ham siz deb murojaat qilolmayman.

\*\*\*

O'g'lining shoirligi Xolambibi ayaning ham baxti, ham baxtsizligi edi. Baxti bolasining she'rlari gazetalarda muntazam nashr etilar, tarjimalari shov-shuvga aylanardi. Bolasining qo'li ochiq edi. Yozganlari uchun berilgan kattagina qalam haqini bir haftada muhtojlarga tarqatardi. She'riy to'plamlari va dostonlariga berilgan qalam haqiga shoir do'stlarini uyga chaqirib, ziyofat berar edi. Tarjimalari uchun berilgan gonorarlarni taniqli va hali nomi chiqmagan tarjimolarni yig'ib, haq berar va o'sha kundan boshlab yangi asarlar ustida bosh qotira boshlardi.

Xolambibi aya va Nosirhojining xavotir olgan kunlari yetib keldi. Usmon Nosirning O'zbekistondagi g'anamlari uni komsomollar safidan va SSSR Yozuvchilar Ittifoqi a'zolidan o'chirdilar. U o'shanda 25 yoshda edi.

1937-yil 13-iyulda Usmon Nosir "xalq dushmani" sifatida qamoqqa olindi. U Rossiyaning eng sovuq o'lkasi Magadan va Kemerovo viloyatlaridagi qamoqxonalarga yuborildi.

O'sha kun, o'sha daqiqadan boshlab Xolambibi onaning ko'zlaridan yosh tinmadi.

O'g'lini afv etishlarini so'rab bormagan eshigi, bosh urmagan devori qolmadi.

O'g'li qilgan jinoyatning nomini tushuntirib berishlarini so'rab sarg'aymagan mahkamasi qolmadi.

Hamma uning ko'ksidan itardi. Hamma uning yuziga eshik yopdi.

O'sha kun, o'sha daqiqadan boshlab o'g'li bilan birga sovuq o'lkalarda xayolan hibsga tushdi.

Yuragini o'g'lining qo'llariga solingan kishan o'rab olgan, qalbi o'g'li yotgan zimistonda edi.

U hech kimni qarg'amadi. Chunki u qarg'ashni bilmas edi.

Usmon Nosir qamoqqa olingandan so'ng faqat bir martagina singlisi Rohatxonga Toshkentdagi qamoqxonadan xat keldi. Unda: "*Singlim Rohatxon! Uyg'unnikiga borib, narsalarimni ol. Madamin Davronning uyida paltom bor. Ibrohim Nazirnikida etigim ham. Shularni olib kelib, menga kirgizib yubor. Ketadiganga o'xshayman*", deb yozilgan edi.

Boshqa bunday imkoniyat bo'lmadi. Sovuq o'lkalarga ham mahbuslarga maktublar va yog'och qutilarda jo'natmalar: quruq mevalar, issiq kiyimlar yuborish mumkin bo'lgan. Birgina Usmon Nosir bu marhamatlardan bebahra edi. Onasi esa o'g'lidani biror mujda eshitish uchun o'zini o'tga-cho'g'ga urardi.

Xiyobon yonida, Pushkin ko'chasida joylashgan Yozuvchilar uyushmasiga borib, o'g'lining, hech bo'lmasa, qayerdagi qamoqxonaga yuborilganini aytishlarini o'tinib so'radi. Biror bir javob yoki dalda o'rniga haqorat eshitgan ona uyushmaning zinasidan tushayotganda turtinib ketib, ko'zi tinib, yuztuban yiqildi. Yonida 4 oylik chaqalog'ini ko'tarib olgan qizi Rohatoy

bor edi. O'sha to'rt oylik chaqaloq hozirda 82 yoshni qarshi olayotgan, ijodining katta qismini Usmon Nosirga bag'ishlagan adiba va shoira Nodiraxon Rashidova edi. Rohatoy bir qo'lida chaqalog'i, bir qo'li bilan esa onasini suyab turg'izmoqchi bo'ldi. Ona esa sovuq yerda cho'kkaladi-yu, qiblaga qarab: "Allohim, bolamning boshiga tuhmat yog'dirganlarga O'zing kifoya qil! Bolamning yigit joniga rahm qil! Usmonimning yuzini oqla!" deya yerga bosh urdi. Qo'lida yig'layotgan chaqalog'i bilan Rohatoy ham: "Gunohimiz nima, Allohim?! Bizga ham yorug' kun bormi? Bizga ham ro'shnolik bormi?" deya yig'lab, onasining turishiga ko'maklashdi.

1944-yil 9-mart kuni Usmon Nosir og'ir xastalikdan so'ng Kemerovo qamoqxonasida vafot etdi.

Xalqimizning sevimli shoiri 1940-yil 20-avgustida I. Stalin nomiga xat yozadi. Maktubda shoir ishini qayta ko'rib chiqishlarini so'raydi. Ajablanarlisi, minglab shunday maktublar orasidan Usmon Nosirning xati e'tiborga tushadi va O'zbekiston hukumati Kremldan shoir ishini qayta ko'rib chiqish haqida buyruq oladi. 1944-yilning so'ngida professor Borovkov, shoir Maqsud Shayxzoda va "Qizil O'zbekiston" gazetasi bosh muharriridan tarkib topgan komissiya Usmon Nosirni aybsiz deb topadi. Afsus, kech edi...

\*\*\*

1956-yilda Yozuvchilar uyushmasidan kelgan vakillar Xolambibi aya va Nosirhoji otalarga farzandi Usmon Nosir vafot etganini va u vafotidan so'ng oqlangani haqidagi xabarni yetkazdi. Shu paytgacha o'g'lini tirik degan umidga suyanib turgan Xolambibi bu musibatni bir necha oy ko'tara oldi xolos. U 1957-yilda omonatini Allohga topshirdi. 1975-yilda esa Nosirhoji yorug' dunyoni tark etdi. "O'g'lim Usmonxon meni jannat eshigida kutib turibdi". Bu Nosirhojining so'nggi so'zlari bo'ldi.

\*\*\*

2022-yil 10-fevral kuni "Otashin shoir, tarjimon va dramaturg Usmon Nosir tavalludining 110 yilligini keng

nishonlash to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, Usmon Nosir hayoti va faoliyatini, xususan uning qatag'on davrida kechgan yillarini o'rganish, hozirga qadar noma'lum bo'lib kelayotgan qo'lyozma asarlarining taqdiri haqida ma'lumotlar to'plash maqsadida ishchi guruh tuzilib, uning Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, shuningdek Rossiyadagi tegishli arxiv materiallari bilan tanishish uchun sharoit yaratiladi.

Namangan shahrida Usmon Nosirga haykal o'rnatiladi. Toshkent va Namangan shaharlaridagi ko'chalarga Usmon Nosir nomi beriladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari, ijod maktablari o'rtasida Usmon Nosir hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Unutmas meni bog'im" mavzusida insholar tanlovi o'tkaziladi.

Ushbu tarixiy qarorni o'qir ekanman, Xolambibi ayaning 25 yoshida "xalq dushmani" deya qamoqqa olingan shoir o'g'li haqqiga qilgan iltijolari endi ijobat bo'lganini ko'rdim.

Tuhmatga uchragan shoir: "Itardilar meni chuqur bir jarg'a", deb yozgan edi. Shoir ruhi yillar davomida "chuqur jar"dan chiqmoq uchun yer tirnadi. Uning erkparvar ruhi Magadan, Kemerovodagi qorong'i o'rmonlarda sarosar kezdi.

Yurtboshimizning adabiyotga bo'lgan hurmati, Usmon Nosir ijodiga qaratilgan g'amxo'rliqi shoirni "chuqur jar"dan olib chiqdi. Bu adolatli qarorni umri davomida kutib, ko'zlaridan qonli yosh to'kib o'tgan mushfiq onaning ruhlari ham shod bo'lsin. Endi shoirning haykali poyiga gul qo'yadigan, u haqda dostonlar, she'rlar, insholar yozadigan avlod shunday shoiri borligini unutmaydi. Men ularga yuragimda faxr-u g'urur bilan shunday deyman: o'zbekning afsonaga aylangan iste'dodli, jasur farzandlarini mag'rur Onalar dunyoga keltiradilar. Unutmang! Ulardan birining ismi Xolambibi edi.

**Zulfiya MO'MINOVA,**  
**O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi,**  
**shoira**







# Yolg'iz emasman

Bu voqea menga Rashod Nuri Guntekinning "Choliqushi" romanidagi oliyanob harbiy shifokor Xayrullabeyni yodimga soldi. Bu asarni o'qimaganlar ham asar asosida ishlangan filmni ko'rganiga aniq ishonaman. Shunday adiblar borki, yaratgan badiiy asarlari bilan sizga o'z millatini sevdirdi.

Gap kitob qahramonlari haqida emas. Shunchaki oramizda o'sha qahramonlardan qolishmaydigan insonlarning borligi haqida so'z aytamiz.

Galining eri olamdan o'tganida o'g'li Dima endigina o'n olti yoshga kirgan edi. Er-xotin Dimaning Toshkentda emas, Moskvada o'qishini istardi. Hamma harakatlari shu maqsadga qaratilgan edi.

Ayol bolasi bilan yolg'iz qolib qiynalgan bo'lsa-da, Moskva xayolidan chekinmadi. Qiyinchilik bilan erishgan bir xonali uylarini ham bolasi uchun ikkilanmay sotib yubordi. Dima o'qishni bitirganidan keyin orqaga qaytmadi. Moskvada qolib, politsiya boshqarmasiga xizmatga kirdi. Bu holat onaning istaklariga ham mos kelgan edi.

Galina ilmiy tadqiqot institutida yoshi ulug' olim bilan birga ishlardi. Farmatsevtika sohasida yetuk olim bo'lgan bu inson shogirdiga har tomonlama ko'mak berardi. Kunlarning birida tushlik qilayotib, ayol o'g'lining yutuqlaridan to'lqinlanib gapirib qoldi.

Ustozi uning gaplarini jimgina tingladi.

- U uy olganidan so'ng meni ham yoniga chaqirar ekan, - dedi sevinch bilan.

- Hmm, shundaymi?.. - dedi olim o'ylanib. - Bu juda yaxshi. Ammo... xafa bo'lmasang, senga bir taklifim bor.

- Aytavering, sizning har bir so'zingiz men uchun ahamiyatli.

- Institut yaqinida bir xonali uyim bor. O'g'il-

qizlarimni bilasan, birortasining ham uy-joyga muhtojligi yo'q. Ular bilan maslahatlashdim. Shu uyni senga beraman. Institut yotoqxonasidan ko'ra bir xonali bo'lsa ham, o'sha uy tuzuk. Nikohdan o'tsak, bu boradagi ishlar ortiqcha ovoragarchiliklarsiz osonroq bitadi. Ko'zingni olaytirma, meni bilasan, "dom"da bir kun ham yasholmayman. Seni hech kim bezovta qilmaydi. Nikoh, bu bor-yo'g'i bir rasmiyatchilik, saksandan oshdim, senga qila olishim mumkin bo'lgan yagona yaxshilik - shu. O'g'lingga ortiqcha ishonma, qizim. U yosh. O'z hayoti bor. Sen bu yerda yolg'izsan, boshpanang bo'lishi kerak. O'g'ling chaqirsa, borsang, nima bo'lishini oldindan bilib bo'lmaydi. Bu uy ortga istalgan payt qaytishing uchun yo'l bo'ladi.

Galina ustozini endi ko'rayotgandek termilib qoldi. Serajin, qoqsuyak qo'llari ustiga kaftini qo'yib, pichirlagandek "rahmat", deya oldi xolos. Oradan ko'p o'tmay, olim olamdan o'tdi. Hayot davom etardi. Olimning farzandlari undan vaqti-vaqti bilan xabar olib turardi. Yo'q, ular ayoldan hech narsa umidvor emasdilar, shunchaki otalaridan olgan go'zal tarbiya ularni beparvo bo'lishga qo'ymasdi.

Bir kuni Moskvadan qayg'uli xabar keldi. O'g'li halok bo'libdi. Terak bargidek titrab yo'lga

otlandi. Qayg'usini birov bildi, birov bilmadi. Moskvada uni hech kim tanimasdi. O'g'li politsiya mayori edi. Shahar chekkasidagi qabristonga dafn etildi. Ayolning ahvol-ruhiyasi bilan birov qiziqmadi. Men o'g'lingizning do'stiman, safdoshiman, deb birov yaqinlashmadi. Yuragida og'ir tosh osilgandek ortga, Toshkentga qaytdi. Aeroport xizmatchisi kelib, unga qo'llarini tutdi. Xizmatchi yigitning qo'llariga suyanib, og'ir qadamlar bilan tashqariga chiqdi.

Tashqariga qadam qo'yishi bilan atrofini odamlar o'rab oldi. Har tomondan "Galya opa..." "Galya singlim..." "Galyaoy, yaxshi keldingizmi?" degan so'roq-savollardan boshi aylandi. Ayrim hamkasblarini aytmasa, ko'pchiligini tanimadi. Ammo ular uni kutib olishayotgandi, bolasidan ayrilgan ona g'amiga sherik bo'lish uchun aeroportga chiqqan erkak-ayollar... g'oyat o'zbekona ohangda Galya opa deyishib. Ular qayerdan bildi? Ayol kimningdir yelkasiga boshini qo'yib, baralla yig'lab yubordi. Kim bo'lsa ham... U begona emas! Galya yolg'iz emas, o'zinikilar orasida edi, o'zbeklar orasida edi.

Inobat  
IBROHIMOVA,  
"Vatanparvar"



# Laylak

Ona yosh edi. Ona navjuvon edi. Bola g'o'r edi, bola go'dak edi... Kunlarning birida ona-bola qishloqqa - uzoq qarindoshlarinikiga boradigan

bo'ldi. Ona qaddini g'oz tutib, tez-tez yurib borar, bola esa alang-jalanglab atrofdagi manzaralarni tomosha qilardi. Qishloq guzarida

yarmini yashin uchirib ketgan bahaybat chinor bor ekan. Bola daraxtni ko'rib, angrayib qoldi: chinorning tarvaqaylab o'sgan shoxida supradek kattakon uya qorayib ko'rinar, uyada esa oyog'i, tumshug'i uzun bir qush turar edi.

Bola mo'jiza ko'rgandek taqqa to'xtab qoldi.

- Anavi nima, oyi? - dedi o'sha tomondan ko'z uzmay.

- Laylak, o'g'lim, laylak! - ona o'g'lining boshini silab qo'ydi. - Yura qol, jonim.

Bola hech qachon bunaqa qushni ko'rmagan edi. Qush negadir bir oyoqlab turardi. U yana to'xtab qoldi.

- Nima u, oyi? - dedi tag'in chinor uchiga ko'z tikib.

- Laylak, o'g'lim, laylak.

- Nimaga bir oyoqda turibdi?

Ona kuldi:

- Bir oyog'i charchagandir-da. Yura qol, jonim.

Oyog'i uzun qush negadir bo'ynini cho'zib, tumshug'ini osmonga qaratib silkitar, shunda "tarak-tarak" degan ovoz eshitilardi.

Bola tag'in to'xtab qoldi.

- Nima o'zi u, oyi? - uning ko'zlarida quvonch bor edi. Hayrat bor edi. Ona shoshib turardi. Mingta yumushi bor. Hali shaharga qaytishi kerak.

- Laylak, dedim-ku, jinnivoy, - deb ohista egilib, o'g'lining yuzidan o'pdi. - Senga salom beryapti-da.

Ona yosh edi. Ona navjuvon edi.

...Oradan o'ttiz yil o'tdi.

Bola yigit bo'ldi. Ona keksayib qoldi. Oyog'idan mador, ko'zidan nur ketdi.

Kunlardan birida ona-bola ittifoqo yana o'sha qishloqqa borib qoldi. Yigit qaddini g'oz tutib, tez-tez yurib borar, ona esa toliqqan oyoqlarini og'ir-og'ir ko'tarib bosganча harsillab kelardi. Guzaradagi yarmini yashin uchirib ketgan chinor hali ham bor ekan. Buni qarangi, chinorning tarvaqaylab o'sgan shoxida hamon supradek kattakon uya qorayib ko'rinar, uyada esa oyog'i, tumshug'i uzun laylak turardi. Yigit laylakka bir qarab qo'ydi-yu, qadamini tezlatdi. Orqada kelayotgan ona

nursizlanib qolgan ko'zlarini chinorga, chinor shoxida qorayib turgan uyaga tikdi. Shoxda osilib turgan narsa ko'ziga g'alati ko'rindi.

- Anavi nima, o'g'lim? - dedi to'xtab.

- Laylak, oyi, laylak!

Ona yaxshi eshitmadi. Uch-to'rt qadam yurib, yana to'xtab qoldi. Savatdek narsa ichida bir nima oqarib ko'rinyapti. Tavba...

- Nima, o'g'lim? - dedi ko'zlarini piri-piraytib. O'g'il taqqa to'xtadi. G'ashi keldi. O'zi shoshib turibdi. Mingta ishi bor! Odam qariganidan keyin ezma bo'lib qolarkan-da!

- Laylak! - dedi jerkib.

- Laylak deya-man-ku, karmisiz?! - shunday dedi-yu, jahl bilan tez-tez yurib ketdi.

Nachora, yigit yosh, yigit navqiron. Uning yumushi ko'p. Hali shaharga qaytishi kerak... Uning g'o'r, go'dak bolalari bor...

O'tkir HOSHIMOVning  
"Daftar hoshiyasidagi  
bitiklar" kitobidan





## KO'NGILLARNI XUSHNUD ETGAN KARVON



Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasining olis manzillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi sust bo'lgan qishloq va ovul ahli holidan xabar olinib, ularga moddiy va ma'naviy ko'mak berish maqsadida Taxtako'pir tumani markazidan 20 kilometr masofada joylashgan Janadaryo ovulida "Saxovat karvoni" tashkil etildi. E'tirofga sazovor jihati, "Biz bir bo'lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – Vatanimiz!" shiori ostida Qoraqalpog'iston Respublikasidagi eng olis ovul va qishloqlarida tashkil etilayotgan bu kabi mehr-saxovat aksiyalari xalq va armiyaning bir tan-u bir jon ekanini amalda namoyon qilmoqda.



Nukus shahridan kolonna bo'lib yo'l olgan "Saxovat karvoni" Taxtako'pir tumani hokimligi mutasaddilari, Nukus harbiy prokuraturasi vakillari hamda Mudofaa vazirligi faxriylar ishlari bo'yicha hududiy kengash a'zolari bilan birgalikda ovulga tashrif buyurib, u yerda ijtimoiy ahvoli og'ir bo'lgan yurtdoshlarimizga mehr-saxovat ulashdi.

Xalqimizni yanada birlashishga, bahamjihat bo'lishga undayotgan ushbu gumanitar tadbir doirasida Janadaryo ovulidagi 30 dan ortiq kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan hamda jismoniy imkoniyati cheklangan aholiga birlamchi oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak hamda xizmat muddatini o'tagan bo'lsa-da, ammo yaroqli holda saqlangan mebel jihozlari tarqatildi.

Taxtako'pir tumanining Janadaryo ovulida aholi salomatligini mustahkamlash, ularga beriladigan tibbiy maslahat va muolajalar sifatini oshirish maqsadida Nukus harbiy gospitali, shuningdek tuman tibbiyot birlashmasi shifokorlaridan iborat tibbiy brigada aholini chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazdi. Ovulda istiqomat qilayotgan 643 nafar fuqarodan 23 nafari jismoniy imkoniyati cheklangani bois harbiy shifokorlar tibbiy xizmat ko'rsatish maqsadida ularning xonadonlariga tashrif buyurdi. Shunday qilib, 200 nafarga yaqin fuqaro malakali tibbiyot mutaxassislarining ko'riklaridan o'tib, laborator tekshiruvlar va beg'araz tibbiy maslahatlar olish imkoniga ega bo'ldi.

Janadaryo ovulidagi 11-maktabgacha ta'lim muassasasi hamda ovul markazida Nukus garnizoni ma'naviyat va

ma'rifat markazi harbiy orkestri hamda tuman madaniyat xodimlari ishtirokida tashkil etilgan konsert dasturi esa barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashib, aholining madaniy hordiq chiqarishini ta'minladi.

Muddatli harbiy xizmatchilar tomonidan namoyish etilgan qo'ljangi va saf elementlaridan iborat chiqishlari, ayniqsa bolalar va yoshlarda katta taassurotlar qoldirib, ularda harbiy sohaga bo'lgan qiziqishni oshirdi.

Bu kabi xayrli ishlar boshqa ovullarni ham keng qamrab olishi rejalashtirilmoqda.

**Shimoli-g'arbiy harbiy okrug  
matbuot xizmati**





Mamlakatimizda milliy yuksalish davrida jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy jarayonlar mohiyati tubdan ijobiy tomonga o'zgardi. Endilikda inson omilini ro'yobga chiqarish, uning ma'naviy takomilini ta'minlash, har tomonlama yuksalishi uchun sharoitlar yaratish, o'z iste'dodlari va qobiliyatlarini erkin namoyon qilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

# Ma'rifatli shaxs tarbiyasi



Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, aholi turmushi va yashash muhitidagi muhim tomonlarni rivojlantirish, jamiyatda islohotlar ko'lamining yuksalishida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va uni yuksaltirish uslublarini ijtimoiy hayotga tatbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Ma'naviy qadriyatlarimizni asrash va uni targ'ibot qilish ham jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ma'naviyat fan va taraqqiyot, ilmiy-ijodiy yutuqlar bilan rivojlanadi, xalqimiz tafakkuri va boy imkoniyatlari bilan hamohang holda boyib, sayqallanib boradi. Ma'naviyat va uning asosiy mezonlari xalqimiz ongida vorisiylik tarzida avloddan avlodga o'tib boradi. Ma'naviyat targ'iboti jarayonida ham ana shu maqsadlar bajarila borib, ma'rifat degan yuksak ijtimoiy hodisa bilan birgalikda olib boriladi.

Shuningdek, bugungi globallashuv sharoitida ularni har qanday mafkuraviy tahdidlardan xalos qilish, "fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili asosida tafakkurida mafkuraviy

immunitetni shakllantirish, bo'layotgan voqea-hodisalarga erkin fikr bildiradigan, kerak bo'lsa tahlil qila oladigan darajada ulg'aytirishga erishishdir. Zero

Yurtboshimiz

Sh. Mirziyoyevning **"Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz"**, degan fikrlari buni isbotlab turibdi.

So'nggi yillarda respublikamizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning asosiy negizlaridan biri – bu ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samaradorligini oshirish bo'lib, bunda aholimiz, ayniqsa yosh avlodning har tomonlama yetuk va barkamol inson bo'lib yetishishini ta'minlashdan iborat. Buni amalga oshirish uchun hukumatimiz tomonidan bir qancha huquqiy asoslar yaratildi. Mazkur asoslar rivojlanish yo'lidan og'ishmay ildamlayotgan respublikamizda istiqomat qiluvchi har bir shaxsning ma'naviy qiyofasi va tafakkurini ijobiy tomonga o'zgartiribgina qolmasdan, balki yosh avlod tarbiyasidek nozik jabhaning olib borilayotgan islohotlar hamda amalga oshirilayotgan ishlar sifatini ta'minlaydi.

Ma'rifatli jamiyat, ma'rifatli shaxs tarbiyasi borasidagi dastlabki islohotlardan biri O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2021-yil 26-martdagi qarori hisoblanadi. Mazkur qarorda **"Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarimoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan hayotbaxsh g'oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda"**, deb ta'kidlangan.

Keyingi yillarda ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishni takomillashtirish ishida uzoq yillardan beri islohot etishga muhtoj bo'lgan muammolarni hal etish borasida yangicha yondashuv amalga oshirildi. Jumladan, ma'naviyat mezonlariga doir tushuncha va tamoyillar Asosiy qomusimiz hisoblanadigan yangilangan Konstitutsiya matnida aks ettirildi; jamiyatimizning ma'naviy taraqqiyoti va yangi ma'rifiy makonni yaratish bilan bog'liq jarayonlarning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlash, ushbu sohaga doir zarur qonunlar, huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish borasida sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Ma'rifatli shaxs tarbiyasidagi huquqiy asoslardan biri **"Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"** hisoblanadi.

Mazkur strategiyada jamiyatimizning ma'naviy rivoji bilan bog'liq ishlar davlat siyosatining alohida va ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab berilishi mazkur sohadagi faoliyatning yangi bosqichini boshlagani shubhasiz. Davlatimiz rahbari tomonidan farmonida **"Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan islohot etish va yangi bosqichga olib chiqish vazifalari"** borasidagi maqsadlarning aniq-tiniq belgilab berilgani esa bu jabhadagi ishlarni jadallashtirdi.

E'tiborli tomoni, bugungi kunga kelib ma'naviyat sohasiga munosabat butunlay o'zgardi. Mustaqillik yillarida birinchi marta bu boradagi ishlar davlat siyosatining alohida yo'nalishiga aylandi. O'z navbatida, bu Asosiy qonunimizda ma'naviyatning konstitutsiyaviy mezonlari va ushbu sohadagi davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlash, bu boradagi tartib-qoidalarni aniq-tiniq belgilab qo'yish zaruratini yuzaga keltirdi. Taraqqiyot strategiyasining beshinchi yo'nalishida **"Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat"** konsepsiyasining kelgusi besh yillikda amalga oshirilishi ko'rsatib o'tilgan. Bu nima degani? Dunyodagi rivojlangan davlatlar va jamiyatlarning bugungi kundagi mavqeyi, eng avvalo, o'sha davlat yoki jamiyat a'zosi bo'lgan kishilarning bilimlilik darajasi bilan o'lchanadi.

Prezidentimiz muammoning mohiyatini chuqur anglagan

holda ilm o'rganish, yoshlarni bilimli va ma'nan yetuk qilib tarbiyalash nafaqat oila yoki ta'lim muassasasida amalga oshirilishi, balki barcha sohalarida ham bu konsepsiyaga qat'iy amal qilinishi zarurligi belgilab qo'yilgan. Bu konsepsiya orqali madaniyat va san'atni yuksaltirish, yoshlarni sog'lom e'tiqod ruhida tarbiyalash, millatlararo hamjihatlik va o'zaro hurmatni mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratilgan muhim jihat sanaladi. Zero bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yagona va ahil oila bo'lib yashayotgani, fidokorona mehnati bilan Vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shayotgani e'tiborga loyiq.

Shu bilan birga, davlatimizning bugungi siyosati ham barcha millat va elat vakillarining milliy o'zligini, ona tili va madaniyatini, dini, urf-odat hamda an'alarini saqlab qolishga yo'naltirilgan. Bugungi kunda jamiyatimizda ma'naviy va moddiy hayotning uyg'un ravishda olib borilishi o'z tasdig'ini topmoqda. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, **"Kimki ma'naviyat masalasi bu faqat ma'naviyat va ma'rifat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi deb o'ylasa, xato qiladi"**. Zero **ma'naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir**. Ma'naviy-ma'rifiy soha oldida turgan ulug' maqsad – Uchinchi Renessansga poydevor qo'yish va uni barpo etish, avvalo xalqimiz, qolaversa yoshlarimizning tafakkurini yuksaltirishdan iborat.

"Yangi O'zbekistonni yetuk ma'naviyatli jamiyat, erkin va baxtli insonlar yashaydigan yurtga aylantirishimiz uchun barcha tizim tashkilotlari bilan bir qatorda vazirlik va idoralar, tashkilot rahbarlari, ziyolilar, olimlar, qisqacha aytganda, barchaertasiga befarq bo'lmagan odamlar birlikda harakat qilishi, qo'lni qo'lga berib ishlashi zarur. Ana shundagina o'z oldimizga qo'yilgan maqsadga erishishimiz va rivojlangan mamlakatlar qatoridan mustahkam o'rin egallashimiz mumkin bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan huquqiy asoslarga tayangan holda, ma'nan barkamol, yuksak iqtidorli va mustaqil fikrlaydigan, Vatanimizga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlarga ega yigit-qizlarni tarbiyalash, ularning iste'dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to'liq ro'yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o'rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham siz va bizning oldimizda turgan, kezi kelganda, kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan bo'lib qolaveradi.

**Ro'zimurod CHORIYEV,**  
**"TIQXMMI" milliy tadqiqot universiteti prorektori,**  
**pedagogika fanlari doktori,**  
**professor**



## Taassurot

Bugun yurtimizda yoshlarimizni yuksak vatanparvarlik tuyg'usi hamda milliy iftixor ruhida tarbiyalash, ularni ajdodlarimizning boy merosi, urf-odat va an'analariga sodiq, kuchli ma'naviyat sohiblari sifatida kamol toptirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

# MA'NAVIY



# KAMOLOT YO'LIDA



Bu borada ertamiz egalariga boy tariximizni chuqur o'rgatish, ularni shu yo'nalishda faoliyat olib borayotgan ma'naviyat maskanlari bilan yaqindan tanishtirgan holda, milliy ruhga yo'g'rilgan tariximizdan saboq olishlari va xulosa chiqarishlariga undash, shu orqali ularni tarix ilmi, tafakkur bilan qurollantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy qism va bo'linmalarida sarhadlarimiz posbonlarining ma'naviy salohiyatini jangovar qudrat bilan birga o'zaro chambarchas va uyg'un holda oshirib borishga alohida e'tibor qaratilib, turli tadbirlar o'tkazilmoqda.

Xususan, Toshkent viloyatining Bekobod shahrida joylashgan harbiy

qismlarning birida o'z yigitlik burchini o'tayotgan muddatli harbiy xizmatchilar uchun poytaxtimizning diqqatga sazovor joylariga uyushtirilgan sayohat ayni shu maqsadda tashkil etildi.

Dastlab Qurolli Kuchlar davlat muzeyida bo'lgan yosh askarlar bu yerda saqlanayotgan eksponatlar, tarixiy va zamonaviy qurol-aslahalar, shuningdek harbiy ishining davriy taraqqiyot bosqichlaridan so'zlovchi turli ashyolar bilan tanishish orqali soha rivojiga oid ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldi.

Keyingi manzil "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi va hududdagi "Shon-sharaf" davlat muzeyi bo'lib, sarhadlarimiz posbonlari bog' hududidagi badiiy-musiqiy kompozitsiyalar orqali yurtdoshlarimizning Ikkinchi jahon

urushi yillarida qonli jangohlarda ko'rsatgan mislsiz jasorati va mehnatkash xalqimizning front ortidagi qahramonliklari bilan yaqindan tanish imkoniga ega bo'ldi.

- Sayohatimiz taassurotlarga boy o'tdi. Qurolli Kuchlar davlat muzeyiga kiraverishdagi "Vatanga qasamyod" majmuasida yurt bayrog'ini qo'lida tutib, tiz cho'kib turgan yurt himoyachisining mahobatli haykali kishini o'zgacha ruhlantirgan bo'lsa, muhtasham "G'alaba bog'i" qadr-qimmat, xotira, tarbiya, jasorat va matonat maskani ekani bilan qalbimizdan chuqur joy oldi. "Shon-sharaf"

turli go'shalaridan muddatli harbiy xizmatga chaqirilib, Farg'ona viloyatida o'z yigitlik burchini o'tayotgan o'g'lonlar hudud o'tmishiga oid ma'lumotlarni katta qiziqish bilan tingladi.

Namangan viloyatidagi harbiy qismlarning birida esa Yoshlar ishlari agentligi va "Nuroni" jamg'armasi hamkorligida "Uch avlod uchrashuvi" tadbiri o'tkazildi. Tadbirda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faxriylari, yozuvchi va shoirlar hamda "Nuroni" jamg'armasi viloyat bo'limi yetakchi mutaxassisi A. Boltaboyev ishtirok etib, yoshlarga vatanparvarlik, mardlik, yurtga sadoqat hamda ma'naviy qudrat tushunchalarining



muzeyidagi eksponatlarni tomosha qilib, urush yillarida mardonavor jang qilib, nomi tarix sahifalarida abadiy muhrlangan ota-bobolarimiz va ularni qo'llab-quvvatlab turgan yaqinlarining matonatidan, shonli tariximizdan katta kuch oldik. Bu hammamiz uchun shunday taassurotlarga boy bo'ldi, - deydi muddatli harbiy xizmat oddiy askari Temurbek Arslonov.

Shu kabi madaniy tadbir Farg'ona viloyati Quvasoy shahridagi harbiy qismlardan biri tomonidan ham tashkil etilib, yosh askarlar Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyiga tashrif buyurdi. Sayohat davomida muzey xodimlari tomonidan bu yerdagi tarixiy ashyolar va mavjud eksponatlar orqali viloyat tarixi hamda uning turli davrlardagi madaniy hayotiga oid ma'lumotlar berib o'tildi. Ayniqsa, yurtimizning

mazmun-mohiyati xususida so'zlab berdi. Ko'tarinki kayfiyatda o'tgan uchrashuv davomida vatanparvarlikka yo'g'rilgan she'rilar, havaskor yoshlarning ijodiy namunalari parchalar ijro etildi.

Ta'kidlash kerakki, yurt osoyishtaligini saqlashga, uning har qarich tuprog'ini ko'z qorachig'idek asrab-avaylashga qasamyod qilgan jasur o'g'lonlar ishtirokida o'tkazilayotgan bu kabi tadbirlar, tinchlikni asrash nechog'li muhimligi va bugun ularning zimmalaridagi jangovar xizmat vazifalarini bajarish haqiqiy mardlarga xos fazilat ekanini yanada teranroq anglashlarida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Mayor Farida BOBOJONOVA**  
DXX Chegara qo'shinlari



Zamon taraqqiy etgani sari ko'p yumushlar oson hal bo'lyapti. Ilgari uzoqdagi do'stlar bilan xat orqali xabarlashgan bo'lsak, hozir internet tarmog'i dunyoning u burchagidagi kishi bilan ham suhbatlashish imkonini beradi. Borgan sari aloqa sohasida barcha narsalar osonlashib borayotgandek. Bugungi kunda uyali aloqa vositasi ham hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Uy bekasidan tortib, kasalxonadagi bemorgacha o'zining beminnat do'stiga suyanib qoldi.

# SMS SAMIMIY IZHOR (MI?)



Kun sari uyali aloqa kompaniyalari turfa xizmatlarni taklif qilib, mijozlarni biroz shoshirib qo'yimoqda. Endi kimgadir xat, ya'ni SMS yozmoqchi bo'lsak, kompaniya taqdim etgan tayyor matndan foydalanish mumkin. Biroq...

Hozir televideniya ham, radio yoki gazeta orqali ham falon raqamga SMS yuboring degan undovni tinglash, ko'rish mumkin. To'g'ri-da, deylik, radioning qutlovlar dasturiga telefon orqali ulanish mushkul, SMS esa ko'p sonli muxlislar talabini bir vaqtda qondiradi.

Yaqinda tungi soat 23:00 atrofida taniqli radiokanalardan birida ajoyib eshittirish berildi. Mavzu kishining ichki va tashqi go'zalligi haqida ekan. Tanlangan mavzu mushohadali, efigra ulanayotgan muxlislar fikri esa bir-biridan qiziq. Orada SMSlar o'qib eshittirildi. Shunda o'ziga xos bir SMS e'tiborimni tortdi. "9-sinfidagi Izzat ichki va tashqi tomonlama go'zal. Men uni hurmat qilaman. Madina".

Boshlovchi esa SMS muallifiga javoban shunday yo'l ko'rsatadi: "O'rtangizdagi bu rishta visol bilan yakun topsin".

Kechirasiz-u, 9-sinfidagi o'smir qizga bunday tilak bildirish, bizningcha, boshlovchi etikasiga to'g'ri kelmaydi. Shu bahona har kuni istar-istamas quloqqa chalinayotgan SMSlar mazmuni haqida ayrim mulohazalar tug'ildi.

"- Salom, abonent yaxshi yotib tursinlar!

- (!).. Qarshi shahridagi falonchixonga yurakcha...

- Salom, azizim M... kechirasiz (boshlovchi boshlab qo'ygan-u, u yog'ini o'qishga uyat yo'l bermaydi)".

Albatta, muxlis bilan radiokanalning jonli muloqotga kirishgani yaxshi, ammo yozish kerak ekan deb, hamma narsani yozavermaydi-da. Hurmatli boshlovchilar ham qaysidir hamma eshitishi zarur bo'lmagan, ba'zan behayo SMSlarni o'qimasalar, nari borsa, bir abonent (yo'g'-e, muxlis demoqchi edim) xafa bo'ladi. Ammo minglab tinglovchilar bemaza satrlarni eshitmaydi. Efir vaqti ham behuda sarf bo'lmaydi.

Bir kuni tasodifan hamkasb qizga kelgan SMSlarga ko'zim tushdi. Ishonasizmi, bir haftada naq 160 ta xabar kelibdi. Ha, shoirtabiatligiga boribdi-da, dedim ichimda. Biroq xabarlarida yozilgan she'rlar SMS muallifi haqidagi fikrimning o'zgarishiga sabab bo'ldi. Keyinroq esa bu beparda satrlar tayyor sevgi izhorlaridan ko'chirilganini aytishdi.

Millionlab mijozlarga xizmat ko'rsatish, ularni ushlab turish, to'g'risi, uyali aloqa kompaniyalariga oson emas. Kuchli raqobat sharoitida abonentlarni jalb etish anchagina ter to'kishni talab qiladi. Qilingan mehnat esa mijozlar sonining oshgani bilan qadrlanaveradi. Ammo bu abonentni nima qilib bo'lsa-da, ushlab turish degani emas. Daromad o'z yo'lga, ammo shunday ajoyib, bir-biriga o'xshamas xizmatlar (deylik, ertangi ob-havo haqidagi, iqtisod va narx-navo bilan bog'liq xabarlar) ko'rsatayotgan zahmatkash xodimlar nega mijoz saviyasini o'tmaslashtirib qo'yishdan xavotirlanmayapti?! Sevgi izhori uchun SMS tayyorlash kerak ekan, bo'lar-bo'lmas so'zlar qorishmasini yozib, qiynalgandan ko'ra, mumtoz asarlardagi shoh baytlardan yoxud zamondosh shoirlarimiz ijodidagi go'zal satrlardan foydalansa bo'ladi-ku. Albatta, bu mening qarashlarim. Asosiysi, o'smir yoshlarimiz she'r deganda o'sha "jo'qiy" izhorlarni tushunib qolishlaridan xavotirdaman.

## Izhor ortidagi xavotir

Ommaviy axborot vositalarida qizlarning kiyinish madaniyati haqida ko'p va xo'p yozildi. Bu chiqishlarning ta'sir doirasi nechog'li bo'lmoqda, bilmadim-u, bizni qizlarimizning ma'naviy dunyoqarashga oid yana bir jihati o'ziga tortdi. Aslida bu to'g'rida yozish ham biroz noqulay. Shunday bo'lsa-da, matbuot nashrlarini kundan kun "bezab" borayotgan dil izhorlari kishini bezovta qiladi.

Ko'pchilikning haftalik hamrohiga aylangan nashrlarda turli qiziqarli mavzular bilan birga "Muhabbat bekati", "Dil izhori" kabi sahifalar ham borki, yoshlarimiz unga befarq qaray olishmaydi.

Bunday gazetalarni varaqlarkanmiz, ulardagi maktablarning aksariyati qizlar tomonidan yozilganini ko'ramiz. Bir sahifada 8 ta xat berilgan bo'lsa, shundan 7 tasi qizlarniki. Ochig'i, ulardagi dil rozlaridan ogoh bo'lib, bugungi qizlarimizning tarbiyasi haqida jiddiy bosh qotirish zarurligiga

amin bo'ldik.

"Farhod bilan internet orqali tanishganmiz.

Bir-birimizni

ko'rmagan bo'lsak-da, o'rtamizda muhabbat uyg'onganiga ishonchim komil" deb yozadi bir qiz.

Bor-yo'g'i internet tarmog'i orqali tanishgan yigitni sevib qolganiga "ishonchi komil"ligi bu

qizning dunyoqarashi haminqadar ekanini ko'rsatib turibdi. Bundan tashqari, yoshlarning ermagiga aylangan "chat"lardagi sevgi maktublari, ulardagi ma'lumotlarning haqqoniyligiga kim kafolat beradi?

"Qiz bolaning izhori g'alati tuyulsa kerak. Ammo... yuragimdagi g'alayonga ortiq chidolmayman. Faxriddin, men sizni yaxshi ko'raman. Kimligimni vaqti kelganda bilib olasiz", deb yozadi keyingi maktub sohibasi. Haqiqatan ham, qiz bolaning sevgi izhor qilishi har qanday yigitni ham hushyor torttiradi. Ammo turmush o'rtog'ining, hatto uylanganini eshitganda o'zbekona ibosini unutmagan Kumushning og'zidan biror marta "sevaman" degan so'z chiqqanmidi?! Bir necha oylab sevgilisini ko'rmasada, "chidolmayman" deganmidi u?!

Shu mazmundagi dil nomalarini o'qirkanmiz, ularda "Endi sevgi azobidan qanday qutulay, endi nima bo'ladi?" kabi savollar ko'pligini sezdik. Xat yozayotgan qizlarning onasi ular bilan suhbatlasharmikan, ularning o'y-xayollaridan boxabarmikan degan savollar dilga tikandek qadaladi. Axir balog'at ostonasidagi qizlarga hammadan ko'ra onaning yaqin bo'lishi lozimligi barchamizga ma'lum-ku. Maktablarda tashkil qilingan qizlar klublari faoliyatida o'quvchilar bilan qaysi mavzularda suhbatlar uyushtirmoqda? Ta'lim muassasasida qizlar majlisi o'tkazilganda hozirgi kunda nima masala kun tartibiga qo'yilyapti? U haqiqiy ma'noda

qizlarning yig'iniga aylanyaptimi? Tarbiyaviy saboqlarimizdan samarasini oloyapmizmi?

Dil izhorlari orasida eng ko'p tarqalganlari xonandalarga atalgan maktublardir.

Biz faqat qizlarni tanqid qilish fikridan yiroqmiz. O'z o'rnida, qizlarimizning millatimizga xos tarbiyasiga oilada va maktabda jiddiy e'tibor berish lozimligini ta'kidlab o'tmoqchimiz.

Ba'zan konsertlarda erkak xonandalarga qizlarimizning munosabatini ko'rib, uyalib ketasan kishi. Ularning o'zini tutishi oldida boyagi qo'shiqchi ham xijolat tortadi.

"Sevimli xonandam!.. Qo'shiqlaringiz, tabassumingiz muxlislar dilini sel qiladi. Nega so'nggi paytlarda televideniya ham, gazetaga ham intervyu bermay qo'ydingiz? Biz tomonlarga qachon gastrol safari bilan kelasiz? Boraman degandingiz. Qancha kutaylik?"

Qancha kutaylik? So'roqning o'zi juda g'alati. Muxlisa qizimiz xonandan nima kutyapti, nima talab qilyapti? Ilgari ahdlashgan yigitini harbiyga kuzatgan, sovchi kelganida otasiga bir og'iz siri haqida gapira olmay, turmushga chiqqanlarni ko'p eshitganmiz. Balki ana shunday iboli ayolning nabirasi yozgandir bu maktubni?

"...ning "... filmidagi rolini ko'rib, unga nisbatan qiziqishim yanada oshdi. Ko'zlari, ajoyib tabassumi, yoqimli chehrasi qizlarni bee'tibor qoldirmasligi aniq". Aslida Yaratgan har bir ishda erkakni tashabbuskor qilib yaratgan. Nahotki bizning nomusimiz sanalgan qizlarimiz tabiatning ana shu qonuniga qarshi chiqib bo'lmashligini uqmagalar?!

"Visol borligiga ishonaman, endi qandoq chidayman!" kabi yalang'och satrlarni o'qib, ular orasida bizning ham singlimiz, qo'shnimiz, tanishimiz yo'qmikan, deb xavotirlandim.



“Tahlil natijalari qoniqarli emas”. O‘zini har qancha tetik tutishga urinsa ham doktorning bu gapidan umidsizlikka tushdi. Aslida yashashga ham rag‘bati yo‘qdek. Kimsaga keraksiz bir qariqiz bo‘lsa. Onasini kuydiradigan bo‘ldi. O‘zi bu dunyodan toq o‘tayotgani ham yetarli edi. Kamiga bu bedavo dard qo‘shildi. Nima ham qila olardi?! Dunyo bir baxtsizga kamayadi. Shu xolos. Shunday og‘ir o‘ylar bilan kasalxona hovlisidagi ulkan daraxt ostidagi o‘rindiqa cho‘kdi. Qarshisida salom berib, jilmayib turgan oq xalatli juvonga hayron boqdi.

(hikoya)



## TOG‘ SHAMOLI

## QIBLA SHAMOLI BO‘LIB QAYTGANIDA

– Siz, Lola opa, a, shundaymi, tuman kasalxonasi jonlantirish bo‘limi hamshirasiz, – yosh ayol uning qo‘llaridan tutib yoniga o‘tirdi. – Sizni darrov tanidim. Ancha yillar avval ammajonimizga qaragansiz, eslaysizmi, uch opa-singil edik, o‘zimiz qaraymiz, deb hol-joningizga qo‘ymagan edik.

– Ha, ha, esladim, juda yaxshi eslayman, – dedi Lola ham jilmayib. – Mehribonligingiz bilan hammani hayratga solgan edingiz. Ammangiz ham yaxshimilari?

– Ammajonim o‘shandan keyin ko‘pga bormadi, o‘tib qoldi... Ammangiz meni deb, dunyodan yolg‘iz o‘tdi, deya dadam ko‘p takrorlaydi. Ota-onasi olamdan o‘tganida opasi o‘n ikkida, dadam besh yoshda bo‘lgan ekan. Qari, kasalmand momosining qo‘lida qolgan ikkisi. Momo bir ishga kuchi yetmasa ham, ularga qora bo‘lgan. “Kasallanib qolsam, opam ko‘rpa-to‘shakda yotqizmay, meni ko‘tarib yurardi. Kap-katta bolaman. Keyin bilsam, meni to‘shakda yotqizsa, o‘lib qolishimdan qo‘rqib, ko‘tarib yurar ekan... Opaginam-ey, farishta bo‘lsa, opamdek bo‘lar”, deb gapirib berardi dadam. Rostdan ham ukasiga o‘zini fido qilgan. Bizni kichkinaligimizdan dadamni kutib olishga o‘rgatgan: birimiz suv, birimiz sochiq, birimiz ko‘rpacha solib kutib olar edik. Dadamga yoqadigan taomlarni tayyorlashni o‘rgatardi. Ukasini shu qadar sevardiki, sal og‘rib qolsa, parvona bo‘lardi, o‘ziga kelmaguncha ko‘zi kulmasdi. Uzoqlardan dadamni ko‘zlari mehrga to‘lib kuzatib o‘tirardi. Nimadir bo‘lib, to‘shakka mixlanib qoldi. O‘n yil yotdi. Avval ayam parvarish qildi, keyin biz, uch opa-singil bu ishni zimmamizga oldik. Hech yolg‘iz qoldirmadik, shu yotishida ham bizga kashtalar, jiyaklar tikishni o‘rgatardi. Sochini yuvib-tarab, xushbo‘ylantirib qo‘ysak, bizni uzoq duo qilardi, yulduzlarim, deb sevardi. Og‘irlashib qolganida kasalxonaga bormayman, dedi. Oldingizda o‘tiramiz, sizga begonalarning qo‘lini tekkizdirmaymiz, deb bir amallab ko‘ndirdik. Turmush qurmaganini uchun o‘zini birovlariga qaratishdan uyalardi, bizga ko‘nikkan edi... O‘shaning uchun hamshira opalarga, shifokorlarga yalinganmiz, ahvolini tushuntirganmiz.

Bir kuni hammamiz oldida chug‘urlashib o‘tirganimizda, gap boshlab qoldi: “Men sizlardan roziman, siz ham mendan rozi bo‘ling! Agar to‘ylaringizni ko‘rmay o‘lsam, azada keng ko‘ylak bilan kelinligingizga atab tikkanim yengkashtalarni bilagingizga ilib, mehmonlarimni kutib olsangiz, sevinaman... Quloqlaringizga rayhonlar taqing, o‘sha payt ham xush iforlarni sezadigandekman. Chiroyligim, baxtiyorim, deb yig‘lang, men bu

so‘zlarni hech eshitmadim...” Jim bo‘lib qoldik. Dadam otilib o‘rnidan turib, yuziga kaftlarini bosib, chiqib ketdi. Uch qiz va ayam chuvullashib, yig‘lab ammamga yopishdik, go‘yo hozir o‘lib qoladigandek. O‘zi ham yig‘ladi... Ko‘p o‘tmay, olamdan o‘tdi. Ta‘ziyaga kelgan ayollar kelinchakdek kiyinib olganimizni ko‘rib, hammasini tushundilar, ayol dardini ayol angelaydi, ko‘hna aytimlardan aytib, o‘z dardlariga yig‘ladilar.

Meni kechiring, sizni ko‘rib, ammam yodimga tushdi. Qandaydir boqishlaringizmi, xayolchan o‘tirishingizmi, ammamga o‘xshaydi. Shunga ortiqcha gaplarni ixtiyorsiz gapirib yubordim. Kechiring!..

– Kechirim so‘ramang! Ko‘nglingizni menday g‘aribga ochganingiz uchun rahmat. Odam odamga o‘xshaydi-da, – dedi va “to‘g‘ri, baxtsizlar bir-biriga o‘xshaydi” degan achchiq-alamli o‘y kechdi ko‘nglidan.

– Opa, men shu yerda ishlayman, singillarim ham shifokor, agar biror yordam kerak bo‘lsa, ayting, tortinmang, rahmatli ammam haqqi-hurmati, qo‘limdan kelgan yordamni beraman.

– Rahmat, singlim, menga endi hech kim va hech narsa yordam bera olmaydi, – shunday deb o‘rnidan og‘ir qo‘zg‘aldi, juvonga qarab siniqqina jilmayib, yana rahmat aytdi-da, asta-sekin darvoza tomon yo‘l oldi.

Ortidan shifokor ayolning qarab turganini sezdi, o‘g‘irilmadi, o‘z xayollariga g‘arq bo‘ldi. Qachonlardir uning ham ammasi bor edi. Eskigina nogironlar aravasida o‘tirardi. Ba‘zan kunning tig‘ida qolib ketardi. Shunday paytlar boshini egib qolar, ammo yig‘lamasdi. Hech qachon “ammam” deyishmasdi, hamma uchun “amma” edi. Ammaga suv berdingmi, ammaga ko‘p ovqat berma, tozalash qiyin, semirib ketyapti, amma juda mijg‘ov, ammaga nasihat qilishni kim qo‘yibdi, “uff”, jonga tegdi, shu amma, internatga berib yuborish kerak... Ammaning aybi nima edi? Vaqtida qaratishganida oyoqlari tuzalib ketgan bo‘lardi. Batamom tuzalmasa ham, yigirma yoshida ammaning bizga ehtiyoji bo‘lmasdi. Hatto xayolida ham ammam deya olmayapti. Nega? Nima yomonlik qilgan shaxsan menga? Oldimda birpasgina o‘tirgin, deb yalinardi. Suvni ham yalintirib berardi, yotgan joyida jiyanlarini bir-bir otini aytib chaqirardi, eshitmaganga olib o‘tirardilar.

Bir kuni Shahlo opasi onasiga arz qildi: “Amma mendan uyat kinolar olib kelishimni so‘rayapti”. O‘sha kuni uyda qiyomat qo‘pdi. Aravachada boshini solintirib o‘tirgan qiz – ammaning yuzlari qip-qizarib ketgan, ter quyilardi, akasi G‘ayrat g‘azab bilan

aravani bir tepgan edi, qiyshayib ag‘darilib ketdi, singlisi yerga yuztuban tushdi, chakkasi shilini qonadi. Shunda ham yig‘lamadi. Shu payt qiy-chuvni eshitib, hovliga kirgan qo‘shni Sadri xola yerda o‘zini o‘ngl olmay yotgan qizni ko‘rib, yugurib borib, avval oyoqlarini to‘g‘rilab qo‘ydi. Qo‘ltig‘idan ko‘tarmoqchi edi, kuchi yetmadi, ovoz chiqarmay yig‘ladi, ortidan kirgan o‘g‘liga imo qilgan edi, baquvvat yigit emasmi, nogiron qizni osongina ko‘tarib, xonasiga olib bordi. Karavotiga avaylab yotqizdi-da, hech kimga qaramay, tez-tez yurib chiqib ketdi. O‘zi bilan qiyshaygan aravani ham olvoldi. Ayol qizning boshida o‘tirib chakkasidagi qonlarni artdi, hech narsa so‘ramadi.

– Xola, ularga ayting, meni Bekjon ukamnikiga olib borib qo‘yishsin, – dedi titrab-qaqshab, yig‘isini ichiga yutib.

– Qizim, bu uy sening uying, Bekjonnikiga ham qancha vaqt sig‘ar eding, shu yerda qol, o‘zim sendan xabar olib turaman, – dedi qizning to‘zigan sochlarini silab.

– Ular meni yo‘qlab kelgan odamlarni oldimga kiritishmaydi, sinfdosh dugonalarim ham kelmay qo‘ydi, hech bo‘lmasa, yuvintirib-tarantirib ketishar edi.

– Sen xafa bo‘lma, o‘zim yuvintirib qo‘yaman.

Hozir uyga chiqib, hammomni yoqaman, keyin seni olib ketaman.

Sadri xola eshikdan chiqa turib, G‘ayratning xotini va qizlariga to‘qnash keldi.

– Xola, qiz egasiz qolgan yo‘q, – dedi xotin zahrini sochib, – sizni hech kim chaqirgani yo‘q, oilaviy ishimizga aralashmang! Uyingizda shunday bitta nogironingiz bo‘lsa, ko‘rardim holingizni. Undan keyin akasini haqqi bor uni tergashga. Indamasa, qizlarimga har xil noma‘qulchilikni o‘rgatadi.

– Haqlisan, kelin, – dedi bosliqlik bilan Sadri xola. – Nogironni parvarish qilish qiyin. Ammo hali baquvvatsan, qizlaringning qo‘lidan ham ish kelib qoldi, qaynisinglingning ahvolini qara... Ota-onasi go‘rida tikka turgandir. Shu qizni yuvib-tarab o‘tirsanglar, qancha savobga qolasiz...

– Aralashmang! – G‘ayratning keskin ovozidan xola bir sapchib tushdi.

– Sen ham aka-da, endi, – dedi xola afsus bilan qarshisida turgan erkakka qarata, – sho‘ri qursin mushtipar qizning... Hali bir kun bu ishning javobini bersanglar kerak. Hayf sendek erkakka!

(Davomi kelgusi sonda)



Soch to'kilishining xilma-xil sabablari bor. Barvaqt soch to'kilishi ichki sekretiya bezlari, jigar, me'da-ichak yo'li a'zolari faoliyatining buzilishi, vitaminlar yetishmasligi yoki soch folikulalari (*xaltachalari*) ning tug'ma kamchiligi va hokazolarga bog'liq.

*dumaloq-dumaloq bo'lib* soch to'kilishini o'z vaqtida davolasa, jarayon ko'pincha to'xtaydi. Mutaxassislar xulosasiga ko'ra, kompyuter oldida ko'p o'tirish ham sochning siyraklashib, jilosining yo'qolishiga va to'kilishiga sabab bo'ladi.

Umuman olganda, sochi to'kiyotgan kishi dermatolog yoki kosmetologga nechog'li erta borsa, davo shunchalik naf berishi mumkin. Soch to'kilishini to'xtatishda uni to'g'ri parvarish qilish katta ahamiyatga ega.

Soch kasalliklari yog' bezlari funksiyasining buzilishi natijasida kelib chiqadi. Dastlab



# SOCH — INSON KO'RKI



Uzoq muddat tana harorati yuqori turadigan ba'zi infeksiyon kasalliklar (*skarlatina, tiflar, gripp va boshqalar*) da, og'ir operatsiyalardan so'ng ba'zida soch to'kiladi, lekin bunda sog'lik asliga qaytgach, soch to'kilishi to'xtaydi. Vaqtincha yoki doimiy soch to'kilishi boshning sochli qismi terisiga zamburug' yuqqani natijasi bo'lishi mumkin, bu holda soch har joydan to'kilib ketadi. Asabiy kechinmalar, o'ta charchash va boshqalar oqibatida ko'pincha soch uya-uya yoki dumaloq-dumaloq bo'lib to'kiladi. Bunday (*ya'ni*

bosh terisida mayda kepakka o'xshagan tangacha – qazg'oq paydo bo'ladi, bu ko'pincha seboreya kasalligida kuzatiladi. Soch to'kilishining sabablari har xildir. Ba'zan soch butunlay to'kilib, kishi kal bo'lib qolishi yoki aksincha, soch zo'r berib o'sishi mumkin. Soch to'kilishi ayrim yuqumli kasalliklar, masalan, zaxmda ko'proq kuzatiladi. Bemor tuzalganidan so'ng to'kilgan sochlar o'niga yangi sochlar o'sib chiqadi. Bosh kiyimining og'ir yoki tor bo'lishi, uzoq vaqt parik kiyib yurish, shuningdek oftobda boshyalang yurish ham soch to'kilishiga sabab bo'ladi. Qish kunlarida boshyalang yurish yaramaydi, aks holda yuza tomirlari qisilib, soch oziqlanishi o'zgaradi. Qarilikda soch to'kilishi ulg'ayish bilan terida yuz beradigan o'zgarishlariga bog'liq. Vaqtdan ilgari soch to'kilishi turli yoshda kuzatiladi. Ko'pincha bu biror betoblik alomati bo'lishi mumkin.

## Asosiy sabab nima?

Mutaxassislariga ko'ra, soch to'kilishiga asosiy sabablardan biri – bu stress. Shuning uchun atrofimizda ro'y berayotgan voqea-hodisalarni ko'ngilga jiddiy olmaslikni tavsiya qilamiz. Keyin vaqtida, sog'lom ovqatlanishga ham diqqat qilish lozim. Och qolish, och qolgandan keyin birdan ovqat yeyish oshqozonni

og'ritib bezovta qilsa, bundan butun vujud ta'sirlanarkan, soch ham shu sabab to'kilishi mumkin.

## Qachon soch to'kilishi me'yor sanaladi

Soch to'kilishining fiziologik va patologik shakllari bor. Fiziologik, ya'ni tabiiy ravishda soch to'kilishi, asosan kuz va bahorda, ayollarda yana homiladorlik hamda emizikli davrda ham ro'y beradi. Homiladorlikda ayol organizmi estrogen garmonini odatdagidan ko'proq ishlab chiqarishi hisobiga sochlar qalinlashib, to'kilishi sezilarli kamayadi. Tug'uruqdan so'ng garmonlar joy-joyiga qaytgach, soch ko'p to'kiyotganga o'xshaydi. Vaholanki, bu me'yoriy holat sanaladi.

## Qanday tekshiruvlar o'tkaziladi?

Dastlab trixoskopiya tekshiruv yordamida sochning ingichka-qalinligiga baho beriladi. Patologik jarayon boshlangan bo'lsa, boshning old qismidagi soch tolalari ensadagilariga nisbatan ingichkalashgani aniqlanadi. Me'yor bo'yicha peshonadan boshlab boshning o'rtasigacha bo'lgan soch tolalari qalin va ko'p bo'lishi kerak. Maxsus qurilma kompyuter ekraniga sog'lom va shikastlangan soch tolalari haqida to'liq ma'lumot uzatadi. Tasvirni solishtirish orqali soch tolasi tuzilishi, soch to'kilishi darajasi va bosh terisi holatiga baho berish mumkin.

## Muolaja usullari ishonchlimi?

Ayollarda soch to'kilishining 3 ta darajasi bor. Birinchi va ikkinchi darajali soch to'kilishida davo choralari yaxshi samara beradi. Uchinchi darajali soch to'kilishi besh yil davom etgan bo'lsa, uning ildizini qutqarish qiyin.

## Ko'p so'raladigan savol

Ko'p sayohat qiluvchi kishilarda ham soch to'kilishi kuzatiladi. Mutaxassislar bu holatni tabiiy jarayon deya baholaydi. Nega deganda, kun bilan tunning almashinuvi soch siklida vaqtinchalik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

## Ko'rik va tashxis

Me'yoriy soch to'kilishi bu o'z vazifasini bajarib bo'lgan soch tolasining ildizidan ajralib, o'niga yangisi o'sib chiqishidir. Ya'ni sikl almashinuvi hodisasi hisoblanadi. Deylik, soch to'kilishi biror patologiya fonida kelib chiqdi. Bunda 100 ta to'kilgan soch tolasi o'niga 90 tasi tiklanadi. Qolgan o'ntasi ma'lum vaqtdan so'ng o'sib chiqishi mumkin. Shu tariqa har safar o'ntadan soch tolasi ortda qolib boraveradi. Va bora-bora qayta tiklanish funksiyasi sustlashadi. Oxir-oqibat soch ildizi atrofiyaga uchrab, umuman soch o'sib chiqmaydi. Ochiq qolgan soch qatorini to'ldirish uchun esa soch ektirishga to'g'ri keladi.

Sochning o'sishi uch fazada farqlanadi, bular: anagen, katagen va telogen fazalar. Hozir to'rtinchi faza ham qo'shilgan bo'lib, u kenogen deb ataladi. Bunda soch to'kilishi va o'sishi orasida uzoq uzilishlar kuzatilishi aniqlangan.

Soch to'kilishiga nasliy moyillik ham sabab bo'lishi mumkin. Bunda genlar orqali onadan 70 foiz, otadan 30 foiz axborot o'tadi. 1-2 foiz holatlardagina soch to'kilishi ota-onaga bog'liq emas va bunda kishining o'zi yangi nasl asoschisi hisoblanadi.

Soch to'kilishining sababini aniqlashda tor doiradagi mutaxassislar: endokrinolog, psixonevrolog, gastroenterolog, proktolog va psixolog ko'rigi belgilanadi.

## Davosi bor!

Hozirgi kunda soch to'kilishini to'xtatish va tolasini mustahkamlash uchun bir qator davo choralari qo'llanmoqda. Bulardan trixologik piling, PRP (*Platelet-rich plasma*) terapiya, lazer muolajasi, soch o'sishini rag'batlantiruvchi surtma, zardob va spreylar yaxshi natija bermoqda. Muolaja har bir bemorga individual belgilanadi. Soch to'kilishi kamaygach, muolajalar ma'lum muddatda takrorlab turiladi. Asosiysi, muolaja to'xtatib qo'yilmasligi kerak.

## Uy sharoitida parvarishlash yordam beradimi?

Faqat tabiiy soch to'kilishidagina uy sharoitida tayyorlanadigan niqob va surtmalardan foydalanish mumkin. Patologik soch to'kilishi aniqlanganda bunday usullar ish bermaydi. Endokrin xastalıklar, garmonal o'zgarishlar, buzoq kasalligida ham soch to'kilishi kuzatiladi. Hozir androgen alopetisiya nafaqat erkaklar, balki ayollarda ham uchramoqda.

Keyingi omil – bu psixoeemotsional zo'riqish. Surunkali charchoq, asabiylik, stress, depressiya, to'yib uxlamaslik, noto'g'ri ovqatlanish va me'yoriy bilan shug'ullanish ta'sirida ham soch to'kiladi.

## Davolashning tabiiy usullari

1. 40 foizli spirtga bitta achchiq qalampir va bir bo'lak sarimsoqpiyoz maydalab, aralashtiriladi va 3 kun qorong'ida saqlanadi. Suyuqlik soch to'kilgan joyga surilib, 2 soat surp yoki chit mato bilan o'raladi. Keyin tozalab yuviladi. Bu usul bir haftada bir marta qo'llaniladi. Agar soch kam to'kilsa, bu usulni bir oyda bir marta qo'llasa bo'ladi.

2. Bir osh qoshiq asalga bitta tuxum sarig'ini qo'shib, aralashtirasiz va sochingizga surib, (*maska*) qo'yasiz va 2-3 soatdan keyin yuvib tashlaysiz.

3. Bir kosa spirtga 10 ta qalampirni solib, bo'ktirib qo'yasiz. Eritmani boshingizga surib, 3-4 soatdan keyin yuvib tashlaysiz.

4. Sochingiz mustahkam bo'lishi uchun sarimsoqpiyozni qirg'ichdan o'tkazib, suvini ajratib olasiz va boshingizga surtasiz yoki qatiq surib qo'ysangiz ham bo'ladi.

Sochi zaif kishilarga soch to'kilishining oldini olish va ildizlarini baquvvat qilish uchun kanakunjut va bodom yog'ini teng o'lchovda olib aralashtirib, soch ildizlariga surtib, massaj qilish tavsiya qilinadi.

**G. XODJAMURATOVA**  
tayyorladi.





Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotida

## BIRDAMLIKKA CHORLAGAN TADBIR



Hozirda O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan mamlakatimiz bo'ylab yozgi ta'lim mavsumida hordiq chiqarayotgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchilari ishtirokida turli tadbirlar va sport musobaqalari o'tkazilmoqda.

Ana shunday tadbirlardan biri tashkilotning Sirdaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Guliston shahri o'quv sport-texnika klubi tomonidan shahardagi sport maktabi o'quvchilari ishtirokida tashkil etildi.

Tadbir boshida bolalarga Vatanni sevib ardoqlashlari, kelgusida uning ravnaqiga hissa qo'shadigan yetuk insonlar bo'lib yetishishlari lozimligi ta'kidlandi. Yosh avlodni ham ma'nan, ham jismonan tarbiya qilishda "Vatanparvar"

tashkilotining o'rni va bu borada amalga oshirilayotgan ishlari xususida ma'lumotlar berilib, yoshlar bu kabi sa'y-harakatlarda bevosita ishtirok etishlari mumkinligi tushuntirildi.

Tashkilotda sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha tashkil etilgan seksiyalari hamda to'garaklarida shug'ullangan ko'plab sirdaryolik yoshlar nafaqat respublika chempionatlarida, balki jahon arenalarida yuqori o'rinlarni egallagan haqidagi ma'lumot yig'ilganlarning aksariyati uchun yangilik bo'ldi.

Tadbirning asosiy qismida sportning pnevmatik quroldan o'tish, duatlon va kurash turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazilib, ularda g'oliblikni qo'lga kiritgan va faxrli o'rinlarni egallagan o'quvchilar tashkilotning esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.



## KLUBLAR FAOLIYATI O'RGANILDI

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov boshchiligidagi ishchi guruh xizmat safari bilan Namangan viloyatida bo'ldi.



Ikki kunlik tashrif davomida tashkilotning viloyat texnik va amaliy sport turlari markazi, Kosonsoy, Chortoq, Uychi, Yangiqo'rg'on, Uchqo'rg'on, Mingbuloq, Norin tumanlari hamda Namangan shahri o'quv sport-texnika klublari faoliyati o'rganildi.

Shuningdek, H. Botirov Uychi tumani o'quv sport-texnika klubining qayta jihozlanayotgan o'quv avtodromini ko'zdan kechirib, mutasaddilarga ushbu ishlar Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 17-avgustdagi 396-sonli qarori va ichki ishlar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi 27-sonli buyrug'i talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi lozimligini ta'kidladi. "Mazkur maskan

respublikamizdagi eng namunali, zamonaviy innovatsion avtodromlardan biri bo'lishi kerak", dedi u.

Safar mobaynida "Vatanparvar" tashkiloti rahbari Yevropa davlatlarida vaqtincha haydovchilik kasbida ishlash istagida bo'lgan fuqarolarning o'quv muassasalarida "CE" toifalari bo'yicha o'qitilishi jarayoni bilan tanishdi.

Bundan tashqari, tashkilotning Namangan viloyati kengashi rahbariyatiga aholi, ayniqsa yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha tegishli topshiriqlar berildi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

Huquqiy targ'ibot

## Korrupsiya — taraqqiyot kushandasi

Jizzax harbiy prokuraturasi tomonidan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni" doirasida harbiy qism va muassasalarda huquqiy targ'ibot tadbirlari tashkil etildi.



Jumladan, viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi shaxsiy tarkibi bilan "Korrupsiya — taraqqiyot kushandasi" mavzusida profilaktik tadbir o'tkazildi.

Muloqotlar harbiy qismlarning birida hamda Sharof Rashidov, G'allaorol tumanlari favqulodda vaziyatlar bo'limlarida davom ettirildi.

Tadbir davomida ushbu tuzilmalarda mavjud sharoitlar va xizmat o'tash ahvoli yuzasidan o'rganishlar olib borildi.

Shu bilan birga, viloyatdagi harbiy qism va muassasalarning 2024-yilning o'tgan 6 oyida qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyati yuzasidan muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishi o'tkazildi. Unda asosiy e'tibor Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan Xavfsizlik kengashining joriy yil 12-yanvardagi kengaytirilgan yig'ilishida belgilab berilgan topshiriqlar ijrosi doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarga qaratildi.

Yakunda tegishli qaror qabul qilinib, harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish, huquq va qonuniy manfaatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarish, ular oila a'zolarining ijtimoiy himoyasini amalda to'liq ta'minlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida kelgusi vazifalar belgilab olindi.

Adliya polkovnigi Sherzod XAYITOV,  
Jizzax harbiy prokurori

## Ijtimoiy himoyaga e'tibor

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Qurolli Kuchlar tizimidagi vazirlik va idoralar hamda qator tashkilotlar hamkorligida tashkil etilayotgan kompleks tadbirlar bu gal Qashqadaryo viloyatida davom etdi.

"Harbiy prokuratura — armiya prokuraturasi" shiori ostida o'tkazilgan tadbirda Mudofaa vazirligining Muborak tumanidagi olis hududlarda joylashgan harbiy qism va muassasalarida xizmat qilib kelayotgan harbiy xizmatchilarning oila a'zolari ishtirok etdi.

Jarayonda tor mutaxassislikdagi shifokorlar jalb etilgan holda harbiy xizmatchilarning turmush o'rtoqlari va farzandlari chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Ayollar orasida uchraydigan kasalliklarning oldini olish maqsadida maxsus tibbiy tekshiruvlar amalga oshirildi.

Yakunda tashkil etilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar ham ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

Adliya polkovnigi Jahongir ASHUROV,  
Qarshi harbiy prokurori



Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyida "Jadidlarning harbiy sohani rivojlantirishga oid qarashlari va harakatlari" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

# ASKARLAR IJROSIDA DRAMA



Unda ushbu muzey xodimlari, Mudofaa vazirligi Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligi, qo'mondonlikka qarashli harbiy qism harbiy xizmatchilari hamda ularning oila a'zolari ishtirok etdi.

Qatag'on qurbonlari xotirasi va jadidlar oyligi munosabati bilan tashkil etilgan mazkur ma'naviy-ma'rifiy kechada Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi yetakchi ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori Muslimbek Alijonov jadidlarning millatni

uyg'otishga, milliy ozodlik sari intilish yo'lidagi mehnatlari, yangi avlod tarbiyasi, millat taraqqiyoti yo'lidagi fidoyiligi xususida ma'lumotlar berdi.

Shundan so'ng qo'mondonlikka qarashli harbiy qismning muddatli harbiy xizmatchilari tomonidan jadidlar siymosi gavdalantirilib,

Abdulla Avloniy qalamiga mansub "Pinak" nomli bir pardali dramasi namoyish etildi. Oradan qancha yillar o'tsa ham, tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotmagan ushbu sahna asari barchada unutilmas taassurot qoldirdi.

Tadbir mobaynida harbiy xizmatchilar jadidlarning

harbiy sohani rivojlantirishga oid qarashlari va harakatlari xususidagi bilimlarini yana bir karra boyitdi. Ma'naviy-ma'rifiy kechadan so'ng muzey bo'ylab ekskursiya tashkil qilindi.

**Katta leytenant  
Dilshod RO'ZIQULOV,  
"Vatanparvar"**

Muallif suratga olgan

## Reklama

**"ORZU" OSH TUZI – YUQORI SIFAT VA KO'P YILLIK TAJRIBA**

93 555 10 92  
93 550 10 92

Yetkazib berish xizmatlari mavjud ☎ 97 745 71 01

Mahsulotlar sertifikatlangan





# Bolajonlar uchun suzishning foydalari



## Farzandingizni suzishga yo'naltirishning 9 ta sababi:

1. Mushak tonusini yaxshilaydi. Suzish paytida turli mushaklarning harakatlanishi va bo'shashishi almashinadi. Bu ularning ishlashi va kuchini oshiradi.

2. Bo'g'imlarning egiluvchanligi va harakatchanligini rivojlantiradi.

Suzish umurtqa pog'onasi uchun nihoyatda foydalidir. Mashg'ulot davomida umurtqa pog'onasi cho'ziladi. Qo'l va oyoqlar harakatlanganda butun tanadagi bo'g'imlar mustahkamlanadi.

3. Tana vaznini nazorat qiladi. Suzish juda ko'p energiya talab qiladigan sport turi bo'lib, hatto fitnessdan ham yaxshiroq hisoblanadi. Mashg'ulot davomida moddalar almashinuvi tezlashadi. Shu sabab tana vaznini me'yorda ushlab turishni xohlasangiz, bu sport turi ideal tanlovdir.

4. Tanani tetiklashtiradi. Suzish chidamlilikni oshiradi, shuningdek og'ir jismoniy zo'riqishlardan keyin tetiklashtiradi, og'riqni yengillashtiradi, davolaydi.

5. Yurak-qon tomirining faoliyatini yaxshilaydi. Muntazam ravishda suzish bilan shug'ullanadigan insonlarda yurak-qon tomir kasalliklari xavfini kamaytiradi, yurak urishi va qon aylanishini normallashtiradi. Qon tomirlarining

faoliyatini yaxshilaydi, arterial qon bosimini pasaytiradi.

6. Nafas olish tizimi faoliyatini yaxshilaydi. Suzuvchining nafas olishi uning oyoq-qo'llari harakati bilan sinxronlashadi. Suzish mashqlari natijasida o'pkaning hayotiy sig'imi oshadi. Ko'krak qafasini kengaytiradigan mushaklarning rivojlanishiga yordam beradi.

7. Asab tizimi faoliyatini yaxshilaydi. Suzish bilan muntazam shug'ullanish markaziy asab tizimi holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Organizmda qon aylanishni yaxshilaydi. Asabiylik holatida, tushkunlikda, uyquni yaxshilashda, diqqatni jamlashda, surunkali charchoqda yordam beradi.

8. Immun tizimini yaxshilaydi. Suzish past haroratga qarshilikni oshiradi, natijada tananing sovuqqa nisbatan sezgirligini kamaytiradi. Organizmning himoya xususiyatlarini oshiradi, infeksiyalarga qarshilik kuchayadi.

9. Stress bilan kurashishda yordam beradi. Maktab o'quvchilarining darslardan keyin suzish mashg'uloti bilan shug'ullanishi asab tizimiga ijobiy ta'sir qiladi. Shu bilan birga suzish uyqusizlikka qarshi kurashishning eng yaxshi usullaridan biridir.



Suzish har qanday yoshdagi inson uchun juda foydalidir. Ushbu sport turi bilan muntazam shug'ullanish rivojlanayotgan bola tanasi uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshqa sport turlari uchun xos bo'lmagan bu sport turida tanadagi barcha mushaklar maksimal darajada ishlaydi va rivojlanadi. Suzish paytida qo'l va oyoq mushaklari, butun yelka qismi, qorin va orqa mushaklar faol ishlaydi. Yuklama butun tanaga teng taqsimlanadi. O'sib borayotgan bolaning tanasi uchun bunday bir xillik juda muhimdir. Suzish bu jismoniy mashqlarning bir ko'rinishidir.

## Pazanda



## Suyak sho'rva – tabiiy kollagen

### Suyakli sho'rvaning foydali xususiyatlari:

- tananing oqsil tizimini va bo'g'imlarni mustahkamlash;
- oshqozon-ichak tizimini tiklash va davolash;
- teri, soch, tirnoqni mustahkamlash;
- metabolizmni tezlashtirish;
- asab tizimini tiklash;
- suyak to'qimalarining sifatini yaxshilash.

Ayollar uchun ham tabiiy kollagen hisoblanadi. Shuning uchun suyak sho'rvaning haftada bir bora iste'mol qilib turish lozim.

Mol suyaklaridan tayyorlangan sho'rva to'yimli va kuchli bo'lib, organizmda temir tanqisligi, og'ir jismoniy zo'riqishlardan keyin tiklanish uchun ayni muddao.

Insonlar turli o'simliklar, go'sht va suyak mahsulotlaridan damlamalar, dorivor sho'rvalar tayyorlab kelgan. Ulardan eng foydali va immunitetni mustahkamlaydigan bu, albatta, sho'rva.

Suyak sho'rva salomatlik uchun juda foydali! Ushbu taom buyraklar faoliyati va ovqat hazm qilish tizimini mustahkamlash uchun qadimda faol qo'llanilgan. Sho'rva tayyorlash uzoq vaqtni olsa-da, juda oson.

**Kerakli masalliqlar:** suyak – 600 g, sabzi – 1 dona, tuz, ziravor, limon sharbati – ta'bga ko'ra.

**Tayyorlanishi:** suyaklarni 2-5 daqiqa davomida qaynating, keyin suvini to'kib tashlab, yuvib oling. So'ng toza filtrlangan suv solib, kamida 12 soat past olovda qaynating. Sho'rva pishishiga 1-2 soat qolganda boshqa sabzavotlar va ziravorlarni solish mumkin. Taomga solingan limon bo'laklari uni yanada xushta'm qiladi.



# “YASHIL



# OLTIN”



Bugun xandon pistağa jahon bozorida talab katta bo‘lib, yong‘oq va bodomga nisbatan 5-6 barobar qimmat turadi. Shu bois unga “yashil oltin” deya ta‘rif berishadi.

Manbalarda yozilishicha, pista dengiz sathidan 500 metrdan 2 200 metrgacha baland bo‘lgan joylarda yaxshi o‘sadi. 500–1 300 metr bo‘lgan joylarda yuqori hosil beradi. Qurg‘oqchilikka chidamli bo‘lgani tufayli uni tog‘oldi hududlarda parvarishlash har tomonlama istiqbolidir. Pistazorlar yaratish nafaqat iqtisodiy, balki ekologik jihatdan nihoyatda foydali. Negaki, tog‘oldi hududlar va adirliklarda pistazorlarning tashkil etilishi nafaqat daromad manbai, balki yerlarning eroziyaga uchrashining oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Bir so‘z bilan aytganda, uning turgan-bitgani xazina. Xo‘sh, yurtimizda mazkur tarmoqni rivojlantirish imkoni bormi? Albatta bor. Chunki mamlakatimiz vohalari hududining kattagina qismini tog‘oldi yerlar va adirliklar tashkil etadi. Mazkur hududlar pista yetishtirish va undan yaxshi hosil olish uchun juda qulay.

Masalan, Qamashi davlat o‘rmon xo‘jaligida bugungi kunda 163 gektar yerda pista daraxti parvarishlanmoqda.

– Pista uch yilda bir marta yaxshi hosil beradi, qolgan ikki yilda esa hosili siyrakroq bo‘ladi, – deydi o‘rmon xo‘jaligi direktori vazifasini bajaruvchi Farhod Xudoynazarov. – Ammo shunga qaramay, unga bozorda talab yuqori bo‘lgani uchun yaxshigina foyda keltiradi. Qolaversa, pista daraxti qirg‘oqbo‘yi yemirilishining oldini olish, ularni mustahkamlash, suv vazasi atrofida mikroiklim yaratishda o‘ziga xos xususiyatga ega. Shuning uchun pistazorlarni yanada kengaytirish, ularni madaniylashtirish maqsadida urug‘dan ko‘kartirib ekish ishlarini olib boryapmiz. Avval yelim xaltachada mahalliy va mineral o‘g‘it bilan aralashtirilgan tuproqqa urug‘ tashlab, qazilgan o‘ralarga joylashtiramiz. Namlikni bir maromda saqlash uchun

ma‘lum muddatda sug‘orib turiladi. Urug‘ nishlab ko‘kargach, erta bahorda nihollar tanlangan yerga o‘tqaziladi. Shu tariqa har yili pistazorlar kengaytirib borilyapti. Endi ba‘zi kam hosilli pista daraxtlarini yaxshi hosil beradigan navlarga payvand qilishni rejalashtiryapmiz.

Buning uchun Jizzax viloyati va Farg‘ona vodiysidagi pista yetishtiruvchi dehqonlar bilan maslahatlashgan holda ish tutish niyatidamiz.

Bu borada Kitob davlat o‘rmon xo‘jaligida ham xayrli ishlarga qo‘l urilmoqda. Bosh o‘rmonchi Uchqun Allayevning aytishicha, pistazor har yili 40–50 sotixga kengaytirilmoqda.

– Ayni paytda pista ekilgan hudud 23 gektarga yetdi, – deydi u. – Shundan 3 gektardagisi hosilga kira boshladi. Agar pistazorimizdagi daraxtlarning hammasi to‘liq hosilga kirsam, 1,5 tonnagacha hosil olishimiz mumkin. Bu kattagina daromad degani. Shu bois har yili pistazorni kengaytirib boryapmiz.

Mutaxassislarning aytishicha, bir gektar yerda 150–180 ta pista daraxti ekish mumkin. 50 darajagacha issiqqa va 41 darajagacha sovuqqa chidaydi. Hosildor nav bo‘lsa va to‘liq hosilga kirsam, bitta daraxt 100 kilogrammdan ortiq hosil berar ekan. Endi o‘zingiz o‘ylab ko‘ring: bir gektar yerdan hosil yaxshi bo‘lgan yili o‘rtacha 15 tonnadan ortiq hosil olish mumkin.

Bu qariyb yarim milliard so‘m mablag‘ degani. Viloyatimizda pista yetishtirish mumkin bo‘lgan minglab gektar yerlarimiz bor. Ularning bir qismi o‘rmon xo‘jaligiga, bir qismi aholiga, bir qismi esa fermer xo‘jaliklariga qarashli. Ularda pistazorlar tashkil

qilinsa, bu mahsulot bilan nafaqat ichki bozorni to‘ldirish, balki tashqi bozorga eksport qilish mumkin. Eng muhimi pista daraxtlari uzoq yillar hosil beradi. Masalan, viloyatimiz hududida joylashgan Quruqsoy tizimida 1 000 yoshga yetgan bir necha xandon pista daraxti saqlanib qolgan bo‘lib, ular hozirda ham hosil bermoqda. Biroq hozir ular bor-yo‘g‘i bir nechta, avval esa butun bir o‘rmon bo‘lgan.

Sohani rivojlantirish borasida buni yetarli deb bo‘lmaydi. Nega? Birinchidan, pistazorlar tashkil etishning afzalliklari haqida ko‘pchilik yetarli tushunchaga ega emas, ikkinchidan, pista nisbatan kech hosilga kiradi, ya‘ni 7–8 yilda ilk mevasini berib, har uch yilda “dam oladi”. Ayni shu jihat unga nisbatan qiziqishning kamayishiga sabab bo‘lgan. Biroq pista daraxti deyarli suv talab qilmasligi, ming yilgacha meva berishi lalmikor yerlardan samarali foydalanishda qo‘l keladi.

Arxeologik qazilmalarning guvohlik berishicha, eramizdan 10 000 yillar avval Markaziy Osiyoda 2 million gektar pistazorlar bo‘lgan. Zamonamiz avvalida odamlarning o‘ylamay qilgan ishlari (kesish, chorva boqish) sababli 300 000 gektarga tushib qolgan. Keyinchalik esa bu maydonlar bir necha o‘n yilliklarda 70 000 gektarga, keyinchalik esa 12 000 gektargacha qisqargan.

**TDSHu xalqaro jurnalistika yo‘nalishi talabasi Jamshidbek KARIMOV tayyorladi.**

@Vatanparvargazetasi\_bot  
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bog‘lanish uchun telegram bot



**SHU SONNING  
ELEKTRON SHAKLI**

